

R-79.

YATSEK ROY

QORA OT

KECHALARI O'LDIRADI

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan
kechikdirilmagan holda topshirillishi shart

ilgarigi berilmalar miqdori _____

821.162 | 05 - 558 .

R - 49 | Ay yatsik.

Qora ot keholov'
oldiradi. : qissa - T.!

"Lizo nohu" 2020-1606

B: 51. 740, 80 tom.

ISBN 978-9943-6340-3-9

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

YATSEK ROY

**QORA OT KECHALARI
O'LDIRADI**

Qissa

YBT



ZIYO NASHR

Toshkent
2020

UO'K: 821.162.1-31

KBK 84.(4Pol)

R 79

Tahrir hay'ati:

**Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov, Nurboy
Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,
Abdurahmon Jo'rayev**

Tarjimon:

Qodir MIRMUHAMEDOV

Roy, Yatsek.

R 79

Qora ot kechalari o'ldiradi. [Matn]: qissa / Yatsek Roy; tarjimon:
Qodir Mirmuhamedov. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020. – 160 b.

ISBN 978-9943-6340-3-9

Detektiv xarakterdagi asarlar o'zining tarang sujet tizimi, sirliligi, qiziqarli va ommabopligi bilan kitobxonni o'ziga jalb etadi. Shu bois bunday kitoblarning o'z muhlislari bor.

Nashriyotimiz e'tiboringizga havola qilayotgan polyak yozuvchisi Yatsek Royning „Qora ot kechalari o'ldiradi“ asari ham shu tipdagi ijod namularidan hisoblanadi.

O'ylaymizki, bu kitobni o'qib zerikib qolmaysiz.

UO'K: 821.162.1-31

KBK 84.(4Pol)

JIZZAX VILOYAT 4	DT-KUFUSARA
INV №	05-558
26	04 2021 Y

ISBN 978-9943-6340-3-9

© Q. Mirmuhamedov (tarj.).

© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020.

NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqimiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomondan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhoniddin Marg'iloniy, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasini izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikens, L. N. Tolstoy, A. Dyuma, N. V. Gogol, O. de Balzak, A. P. Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G. G. Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dundar, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga muyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiy, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar tomonidan o'girilgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'rin olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalari ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagi juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

QORA OT KECHALARI O'LDIRADI

O'sha kuni ertalab uyquga to'yamay xunob bo'lib uyg'ondim. Turib, deraza pardasini ochdim-u, quyosh chaqqlab turgan beg'ubor osmonni, huzurbaxsh, so'lim yakshanba ertasini ko'rib, kayfiyatim battar buzildi. Men kechasi tong sahargacha ishlagan edim – bunday hollar menda bot-bot bo'lib turadi, – shuning uchun ham dilim g'ash edi. Chunki bu yakshanba kuni ham ishlashimga to'g'ri kelayotgan edi. O, shu kasbni tanlagan kunimga necha-necha martalab la'natlar aytmadim! To'g'ri-da, tokaygacha chidash mumkin? Bo'ldi, jonimga tegdi! Hammasiga tupuraman-da, nafaqaga chiqaman. Xudoga shukr, ish stajim yetib-ortadi. MO¹da u tashkil etilgan kundan beri ishlayman, qolaversa, partizan otryadida jang qilganimning har bir yili ikki yil hisobiga o'tadi.

Har safar ko'z oldimda o'tmishim jonlanadi. Xalq Polshasi militsiyasida xizmat qilgan dastlabki kunlarimni, bosqinchi to'dalarni, qaroqchilarni... eslayman. O'shanda bizning zimmamizga yangi tuzilgan hokimiyatni himoya qilish, fashist bosqinchilari tomonidan xarobazorga aylantirilgan davlatda tartib o'rnatish vazifasi yuklatilgandi. Vazifamiz aql bovar qilmaydigan darajada og'ir edi. Lekin bu mashaqqatli xizmatlarimiz bizga saboq bo'ldi...

Bo'ldi, xayolga berilishni, zorlanishni bas qilaylik. Bari-bir, men o'z ishimni yaxshi ko'raman, boshimda qilich o'y-

¹MO – Polsha Xalq Respublikasida fuqaro militsiyasi.

natishganda ham uni tashlamayman. Nafaqagami? Men-a? Tavba! Bo‘ydan Xudo bergan – boshim shiftga tegay deb tursa, toshim yuz kilodan kam bo‘lmasa, kallam binoyiday ishlasa, nafaqaga balo bormi?

Xullas, o‘sha yakshanba kuni quyosh charaqlab turgan edi. Iliq va sokin iyul ertasi. To‘g‘ri, juda charchagan edim, lekin buning ajablanadigan yeri yo‘q, chunki o‘sha paytda oltita jiddiy ishni baravar olib borayotgan edim, lekin ularning oxiri ko‘rinmas, bu yoqda rahbarlar ham, prokuror ham shoshirgandan shoshirishardi. Qo‘l ostimda esa bor-yo‘g‘i o‘n yettita odam bor, bu ham yetmaganday, boshim uyqusizlikdan lo‘qillab og‘rigani-og‘rigan.

Shetsin – ulkan port shahri emasmi, har turli „artistlar“ni – valyutafurushlar, o‘g‘rilar, o‘g‘irlangan mollar bilan savdo qiluvchilar, fohishalar va ular orqasidan kun ko‘ruvchi dayuslarni, har xil toifadagi chayqovchilarni va nihoyat, eng xavfli jinoyatchilarni – „ho‘l ish“, ya‘ni odam o‘ldirish bo‘yicha mutaxassislar-u, jinoyat dunyosining oqsuyaklarini doim o‘ziga tortardi. Sokin Odra daryosi necha-necha „o‘z joniga qasd qilgan“ odamlarni sohilga chiqarib tashlamadi? Necha-necha martalab biz istirohat bog‘larining xilvat go‘shalaridan, pastqam bog‘ ko‘chalardan, Arkon changalzorlaridan notanish shaxslarning jasadlarini topmadik. Shetsindagi uylarning yerto‘lalari, chordoqlari ne-ne mash‘um sirlarni yashirmadi! Odatda, boshqa tezkor guruhlar jinoyat izini va sirini topish uchun astoydil ter to‘kib xizmat qilishardi; lekin jinoyatni ocholmay umidsizlikka tushgan paytlari ham bo‘lardi. Shunda rahbarlar uning tagiga yetishni menga topshirdilar. Mening brigadamda esa bor-yo‘g‘i – ikkita kapitan, uchta poruchik, bir nechta serjant-u ekspert bor edi.

Ha, Shetsin – chiroyli shahar. Uning yangi dahalarini ochish, mahobatli imoratlarini, ulkan ko‘kalamzor parklarini qayta tiklash uchun butun xalq ozmuncha mehnat qilma-

di deysiz. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, shahar boshqatdan, barpo qilindi, zero, u butkul vayron qilinib, kultepaga aylangan edi. Ha, biz ajoyib va ko'rkam shahar barpo qildik. Ammo, taassufki, jinoyatchilikni tag-tomiri bilan qirqib tashlay olmadik, keyingi paytlarda jinoyatning yana yangi-yangi shakllari paydo bo'la boshladiki, ularni bartaraf qilish uchun katta kuch kerak bo'ladi. Demoqchimanki, nafaqaga chiqishimga hali erta.

Buning ustiga, Shetsin atrofidagi shaharchalardagi va Boltiqbo'yining kurort yerlaridagi hamkasblarimiz doimo bizning MO Markaziy boshqarmamizga murojaat qilib, bizdan yordam va maslahatlar so'rab turadilar.

Bugun qanday so'lim, xushhavo kun-a! Shunday kunda, umuman, yakshanba nima, bayram nimaligini bilmay mudom muk tushib ishlasang, alam qilmaydimi, axir? Men yana, bugun shahar stadionida mamlakat birinchiligi uchun bizning „Poloniya“ jamoamiz bilan Zabja shahrining „Gurpik“ jamoasi o'rtasida futbol o'yini bo'lishini esladim. Men bo'lsam, yana kun bo'yi qog'oz titib o'tirishim kerak!

Men yangi qurilgan baland uyning sakkizinchi qavatidagi bir xonali xonadonda yashayman. Xonamning derazasidan go'zal manzarali Shetsinning deyarli yarmi xuddi kaftdagidek ko'zga tashlanib turadi... Shaharning husn-u tarovati kishini o'ziga rom qiladi.

Port uzra to'shalgan ertalabki siyrak tuman. U yerda qadim zamonda yashab o'tgan bahaybat kaltakesaklarni eslatuvchi ko'targich kranlar osmonga bo'y cho'zgan. Ulkan elevatorlar, kemalarni ta'mirlovchi doklar va boshqa inshootlar tuman pardasi orasidan elas-elas ko'zga tashlanadi. U yerda tizilishib turgan, suzib ketayotgan va suzib kelayotgan turli shakl va hajmdagi son-sanoqsiz kemalarni aytmay sizmi!..

Ko'zgu oldida turib soqolimni olarkanman, yana ertalab uyg'onganimdagi noxush kayfiyat xayolimni chulg'ab oldi:

men holdan toygandim, kallam yaxshi ishlamasdi, ish esa boshdan oshib yotibdi, bir kunda, baribir hech narsaning uddasidan chiqolmayman. Shuning uchun iyulning bu serquyosh yakshanba kunini hamma odamlar qatori dam olib o'tkzksam qandoq bo'larkin, deb o'yladim. O'yladim-u shu zahoti ahvoli ruhiyam yengillashdi.

Men „Ekstra“ barida nonushta qildim. Keyin xiyobonlarda ancha vaqt sayr qilib yurdim. Chunki menga ko'proq harakat qilish, ko'proq toza havoda bo'lish juda-juda zarur edi. Men yurib-yurib charchadim, futbol musobaqasi boshlanishiga esa hali ancha bor edi. Vaqt o'tkazish uchun Voyska Polska xiyobonidagi Kitoblar klubiga kirdim. Bu yer tinch va osuda edi. Hamma qatori men ham chet el jurnallarini varaqlab, ulardagi rangli rasmlarni tomosha qila boshladim. Bu yerda juda xushta'm qahva tortishadi. Xullas, jonning huzuri deysiz. Ha, yakshanba yomon boshlanmadi...

* * *

Saldan keyin stolim yoniga bir kishi kelib o'tirdi, ammo men bosh ko'tarib unga qaramadim, faqat xalaqit qilmaslik uchun oyoqlarimni stulim tagiga tortib oldim. Jurnal varaqlashda davom etayotgan bo'lsam ham kishining mendan ko'z uzmayotganini his qildim. U ko'zini lo'q qilib bezbetlarcha menga tikilar, men ham atayin unga e'tibor bermasdim. Shu payt u odam birdan kulib yubordi. Bu kulgi menga juda tanish edi. Boshimni jurnaldan ko'tarib unga qaradim, qaradim-u... ko'zlarimga ishonmadim.

Yo qudratingdan, ro'paramda Aristotel Baks o'tirardi. Aristotel Baks! U chorburchak shishali ko'zoynagidan menga tikilib turarkan, nuqul jilmayardi.

– Salom, qariya, nima, osmondan tushdingmi? – Men eski qadrdonim va hamkasbimning qo'lini qattiq siqib ko'rishdim.

– Salom, do‘stim. Seni ko‘rganimdan behad xursandman, Pavlik, lekin, iltimos, qo‘limni qo‘yib yubor, hali u menga kerak bo‘ladi.

– Ozib qolibsana, – dedim men, holbuki u azal-abad shunaqa qotma edi.

– Qorin qo‘yish uchun biqiningda baquvvat suyanchig‘ing bo‘lishi kerak, – dedi u faylasufona mulohaza yuritib va qo‘shib qo‘ydi: – qaragam, ko‘rinishing uncha yaxshimas. Klubda o‘tirib jurnal varaqlayapsan – nima, halitdan nafaqaga chiqib oldingmi, deyman?

Qiziqarli suhatimiz shu yerga yetganda atrofimizda o‘tirgan kitobxonlar: „Jim, sekinroq!“ – deb malomat qila boshladi va biz endi pichirlashib gapirishga majbur bo‘ldik.

– Qaysi shamol uchirdi? – deb so‘radim men do‘stimdan.

– Men ta‘tildaman, – dedi Baks, – ikki-uch hafta Svinouysseda dam olmoqchiman.

– Havasimni keltirma. U yerda turadigan joying aniqmi?

– Oldin boray, bironta boshpana topilib qolar.

– Bu sen o‘ylaganchalik oson emas, Art. U yer dong‘i ketgan kurort. Dam oluvchilar bir yil oldin turadigan joylarining g‘amini yeya boshlaydilar, xafa bo‘lma, o‘zim senga joy topib beraman. Xo‘sh, bugungi rejang qanday?

– Shetsinni tomosha qilsam devdim. Men vokzaldan uyingga qo‘ng‘iroq qiluvdim, hech kim go‘shakni ko‘tarmadi. Boshqarmadagilar ham sen haqingda aniq bir gap aytishmadi. Mabodo uylangan emasmisan?

– E, do‘stim, uylansam to‘yim sensiz o‘tarmidi? Qani, rostini ayt, nima uchun Svinouyssega bormoqchisan?

– Aytdim-ku senga – dam olgani. Men ta‘tildaman.

– Tushunarli. Demak, shunchaki dam olgani. Qo‘ysangchi hazilingni, Art. Seni yaxshi bilaman. Rostingni ayt.

– Gapim rost – dam olmoqchiman. Yana... shved tilini o‘rganmoqchiman.

– Uch hafta ichida-ya?

– Agar ko‘zlagan ishim yurishib ketsa, bir oyga qolishim ham mumkin u yerda.

– Ha-a, bu boshqa gap. Bilasanmi, Art, o‘zim ham bormoqchi bo‘lib turuvdim Svinouyssega.

– Yaxshi-ku. Ta‘tilga chiq, birga ketamiz.

– Chiqolmayman, qariya. Bir emas, oltita ochilmagan ish yelkamda og‘ir yuk bo‘lib osilib turibdi!

– Yo‘q... hech ishongim kelmaydi. Yelkasida oltita ish bo‘lgan odam shaharda sayr qilib, klubda jurnal varaqlab o‘tirmaydi. Hali, bugun futbolga ham borarsan? Ko‘chaga yopishtirilgan afishalarni o‘qidim – „Poloniya“ bilan „Gurnik“ o‘ynar ekan.

– Boraman, albatta. Tosh yog‘sa ham boraman.

Do‘stim menga shubha bilan qarab qo‘ydi:

– Nima qilasan mendan yashirib? Yo seni iste‘foga chiqarishgan, yo bo‘lmasa, qiladigan hech qanday ishing yo‘q!

Darhaqiqat, uning bu gapida mantiq bor edi. Men unga vaziyatni tushuntira boshladim va quyidagi gaplar bilan izohimni yakunladim:

– Shetsin militsiya uchun juda murakkab shahar. Buning oldida Varshavani behbudlik va farovonlik vohasi desa bo‘ladi. Ko‘limizdan kelgancha tirishib yotibmiz.

Stadion tribunasidan joy olganimizda, o‘yin boshlanishiga hali yarim soat bor edi. Bizning esa gapimiz hech tugamasdi. Axir ikki yildan beri endi diydor ko‘rishayotgan edik-da...

Men Aristotel Baks bilan bundan bir necha yil burun Varshavada, MO Bosh boshqarmasida xizmat qilib yurgan paytimda tanishganman. O‘sha paytlarda bir kuni muxbirlar uchun o‘tkazilgan matbuot konferensiyasida ishtirok etishimga to‘g‘ri keldi. Shunda qalam sohiblaridan biri menga Benedektin ko‘chasida yuz bergan qotillik haqida savol berib qoldi. Bu mash‘um hodisa hamon ko‘pchilik odamlarning esida bo‘lsa kerak: o‘g‘ri nafaqaxo‘r bir kam-

pir bilan uning ko'zi o'jiz qizini vahshiylarcha o'ldirib ketgan edi. Tergov ishlari hech qanday samara bermagan, afkori omma esa, bu vahshiy qotil hanuzgacha sudga tortilmagani uchun odil sudlov organlariga haqli ravishda ta'na qilar edi. Muxbirning savoliga javob berarkanman, mavjud vaziyatni, odamlarimizning tergov chog'ida juda murakkab ishga ro'para kelganligini tushuntirishga harakat qildim, lekin izohlarim, chamasi, uncha ishonarli chiqmadi, shekilli. Shuning uchun, barcha ta'na-malomatlarni (garchi ko'plari o'rinsiz bo'lsa ham) tishimni-tishimga qo'yib tingladim va zalda o'tirganlardan paydar-pay yog'ilayotgan savollarga qisqa-qisqa va aniq javob qaytara boshladim. Doim shunaqa: ishni hammamiz birgalikda bajaramiz-u, baloga qoladigan faqat men. Nihoyat, bo'lar-bo'lmas savollarga javob qaytaraverish jonimga tegdi. Bir yigitcha, – keyin ma'lum bo'lishicha, – u Varshava universiteti fakultetlaridan birida assistent ekan, – bizning tergov olib borish usulimiz haqida piching qilib, hattoki tahqiromuz gaplar aytib, sabr kosamni to'ldirib yubordi, „yalpi bamaylixotirlik“ deb ifodaladi bu dumbul bola bizning faoliyatimizni. To'g'ri, men unga o'z ishini puxta biladigan odam sifatida jahd bilan javob qildim... ammo qattiq zarba oldim. Bilasizmi, uning zarbasi asosli va ma'nili edi. U mening qat'iyat bilan bergan javobimdan zarracha ham hayiqmay va e'tiroz bildirishimga imkon qoldirmay, tergov ishimizning noto'g'ri va soxta yo'ldan borganini aytdi – chamasi, u matbuotga sizib chiqqan ba'zi bir ma'lumotlardan xabardor bo'lsa kerak, ikki-uchta misol bilan (e'tirof etishim kerakki, ular juda ishonarli edi) o'z taxminlarining to'g'ri ekanligini isbotladi va mendek mutaxassisni lol qoldirganidan mamnun bo'lib joyiga o'tirdi.

Bu ishning tafsiloti bilan tanish bo'lmaganim sababli (uni yordamchilarimdan biri olib borayotgan edi), yigitcha bilan munozaraga borib o'tirmadim. Qolaversa, agar bu ishni mufassal bilganimda ham, baribir munozara qi-

lishga imkon bermagan bo'lardim. Negaki, hali poyoniga yetmagan har qanday ahamiyatsiz ishni ovoza qilish xizmat sirining fosh etilish xavfini tug'dirishi va turgan gapki, olib borilayotgan tergov ishiga qayta tuzatib bo'lmaydigan zarar yetkazishi mumkin edi. Mana shuning uchun ham men, murakkab tergov ishini olib borish boshqa-yu, gazetalardagi xabarlardan kelib chiqib, ermakbop detektiv asarlardan olingan bilimlarga suyanib, eldan burun xulosa chiqarish boshqa, degan bayonot bilan munozarani taqqa to'xtatib qo'ya qoldim...

Holbuki, mening bu tahdidona e'tirozim universitetning yosh assistentini zarracha ham xijolat qilmadi.

Bu yigitchadan qutuldim, deb o'ylab yanglishgan ekanman. Ertasi kuni u „shirin suhbatni yakunlash“ maqsadida ishxonamga kirib keldi. Undan qutulish uchun har xil bahonalar qildim, baribir, ketmadi. Axiyri, Benedektin ko'chasi-da yuz bergan qotillik haqidagi materiallarni olib kelishlarini buyurdim. Aristotel Baks bu xiylagina titig'i chiqqan semiz-semiz jildlarga jo bo'lgan ishni zo'r diqqat bilan ko'zdan kechirib va mening istehzoli nigohimga parvo ham qilmay, bir boshdan o'rgana boshladi. Lekin sirdan qaraganda to'pori bo'lib ko'ringan, g'aribona kiyingan „to'rtko'z“ yigitcha bir necha jildni varaqlab chiqib, o'z mulohazasini bayon qilganida, mening boyagi istehzolarimdan asar ham qolmadi. Ha, men sizga aytsam, bunday oqilona mulohazani umrimda eshitmagan edim. U go'yo xonada o'zidan boshqa hech kim yo'qday so'zlardi. U o'z monologini „bu ishni yechishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan, ammo tergovni olib borayotganlar e'tibor qaratmagan ayrim jihatlar va vaziyatlar“dan boshladi.

Men bilardim, bu tergov ishiga tajribali zobit rahbarlik qilayotgan edi; ishonamanki, u hamma zaruriy tadbirlarni qo'llab ko'rgan. Umuman, uni tanlab yanglishmagan edim, lekin shunday bo'lsa ham...

Bu yerda boshqa gap bor edi, ammo men uni qanday ifodalashga qiynalyapman. Gap shundaki, bu dumbul yigitcha qandaydir juda noyob, mutlaqo aql bovar qilmaydigan doxiliy hissiyot, favqulodda layoqat egasi edi: u o'zi bilgan ma'lumotlarning zarralariga suyangan holda nafaqat jinoyat manzarasini tiklay olar, shuningdek, jinoyatchining jinoyatdan keyin qanday ish tutishini ham oldindan ko'ra olardiki, bu tergov ishida juda muhim holat edi. Qisqa qilib aytadigan bo'lsam, biz, ya'ni eng og'ir jinoyatlarni ko'ruvchi bo'limda yillab tajriba orttirgan, siyqasi chiqqan Shimanskiy familiyasi militsiya mayori – men va universitetning ilmiy xodimi, mumtoz filologiya bo'yicha mutaxassis, filologiya fanlari doktori Baks degan jarangdor familiya va Aristotel degan antik ism sohibi – do'stim ikkovimiz shu kundan boshlab qo'lni qo'lga berib ishlay boshladik.

Biz Art bilan birinchi marta uchrashgandan keyin ikki hafta o'tgach, Benedektin ko'chasida qotillik qilgan jinoyatchini qo'lga tushirishdi. O'shanda bu haqda gazetalarda juda ko'p yozishgan edi, lekin Baksning familiyasi, uning qat'iy iltijosiga ko'ra, hech bir yerda tilga olinmagan edi. Shundan keyin ketma-ket: „Yuzefovalik aka-ukalar“ ishi, Mokotavska ko'chasidagi soatsozning o'ldirilishiga doir o'ta chigal ish, bir yo'la to'rt kishini o'ldirgan Olga F.ning shov-shuv bo'lgan ishi va boshqa bir qator ishlar ochildi. Art bizga ko'maklashgan hamma ishda jinoyatchi topilib, ishi sudga oshirilardi, (ko'pincha bunday jinoyatchilar oliy jazoga hukm qilinar edilar – bu qonun talabi edi), xullas, u bosh qo'shgan ishlarda bironta ham jinoyat ochilmay qolmadi.

Shu bilan birga, Baksning dovrug'i – o'z sohamiz kishilari davrasida, albatta – oshgandan osha bordi va ko'p o'tmay Varshavadan tashqariga chiqdi. Uni mamlakatning boshqa rayonlaridagi operativ ishlarga ham taklif qila boshladilar. Uning yordami bilan Krakovda qator qotilliklar qilgan bir

yigit qo'lg'a olindi. Lodzda odamlarni qiynab o'ldirayotgan mash'um to'dani zararsizlantirish yo'lini Baks o'ylab topdi. U Poznandagi muzeydan o'g'irlangan behisob qimmatbaho san'at asarlarini topib, davlatga topshirdi. Art ochgan ishlarini sanab adog'iga yetib bo'lmaydi.

Bora-bora uning tergov ishlarida qatnashayotganini yashirib bo'lmay qoldi. Baksning shuhrati endi mamlakatimiz chegarasidan chetga chiqa boshlagan edi. Uni Angliyadagi hamkasblar taklif qilishdi. Art GFRda ham, Misrda ham, AQSHda ham, Hindistonda ham bo'lib, o'z yordamini ko'rsatdi. Lekin bu endi butunlay boshqa voqea. Men bu yosh olimning bo'sh kunlari, hattoki, ba'zida kechalari ham biz bilan astoydil hamkorlik qilgani haqida gapirmoqchiman. Bu ilmiy xodim meni, rahbarlarimizni, hattoki jinoyatchilarning o'zini ham hayratga solib, oliy darajadagi izquvarga aylangan edi.

Art endigina o'ttizdan oshgan edi. Baland bo'yli, oriq, beo'xshov kiyingan, o'ta loqaydtabiat bu yigit sirdan qaraganda g'irt kaltafahm, noshud odamga o'xshardi. Buning ustiga, qirra burniga qo'ndirilgan ko'zoynagining dam-badam sirg'alib tushaverishi, aql to'la boshidagi eskirgan pichan rangidagi hurpaygan sochi yuqoridagi taassurotni yanada bo'rttirib ko'rsatardi. U chekmasdi, kamdan kam paytda ichar, boz ustiga hali bo'ydoq, hazil-mutoyiba tuyg'usi juda o'tkir edi.

Baks noyob xotira sohibi bo'lganligi uchun hech qachon hech nimani qog'ozga yozib olmasdi. Yuqorida aytib o'tganimdek, antik davr filologiyasi bo'yicha mutaxassis edi. U o'z oilasi an'anasini davom ettirayotgan edi. Gap shundaki, uning otasi Varshava universitetining va Londondati Britaniya akademiyasining professori Yan Baks juda ko'p tillarni mukammal bilar, antik davr filologiyasi sohasida nafaqat Yevropa miqyosida, balki butun dunyoda desa ham bo'ladi, juda katta e'tibor qozongan olim edi. Polshada esa u Angli-

ya bo'yicha eng yirik mutaxassis hisoblanardi, bunga sabab uning otasi, ya'ni Artning bobosi asli ingliz edi.

Do'stinga nima uchup Aristotel deb ism qo'yishganini endi tugshungan bo'lsangiz kerak? U donishmand dadasiga nisbatan kamroq til bilar, ya'ni bir nechta qadimiy tilni va deyarli barcha Yevropa tillarini o'rganib olgan edi. Bir kuni u menga o'z armonini aytib, xitoy tilini o'rganishga imkoni bo'lmayotganidan afsuslandi. U hali yosh – armoni ushalsa ham ajab emas...

Art tilshunoslik ilmidan tashqari tibbiyot, psixologiya, huquq, mantiq, toksikologiya (zaharlar xususiyatini o'rganuvchi ilm) va yana bir qator sohalarning mukammal bilimdoni edi. Agar biz Artning universitetga... o'n olti yoshida imtihonsiz qabul qilinganini e'tiborga oladigan bo'lsak, uning bu qadar bilimdon bo'lganligidan ajablanishga zarracha o'rin qolmaydi!

Art nimani yoqtirmasdi, degan savol tug'iladigan bo'lsa, aytishim mumkin: militsiyani, prokuraturani, sudlarni va hazilni tushunmaydigan odamlarni. Ana shu hazilni tushunmaydigan odamlar haqida u: „Bular potensial jinoyatchilardir; yodingda bo'lsin, Pavlik, hazil-mutoyibani tushunadigan odam hech qachon jinoyatga ataylab qo'l urmaydi“, – degan edi bir necha marta. Siyosatni u jinidan battar yomon ko'rardi. „Siyosat haqida fikr yuritishim uchun, – derdi u, – aqlim yetmaydi, lekin juda aqlli bo'lganim uchun u bilan shug'ullanmayman“. Nazarimda, uning ayollarga nisbatan munosabatida ham shunga o'xshash holat mavjud edi.

U ko'p gapirishni yoqtirmasdi. Ahyon-ahyonda bir falsafa so'qib, ba'zi-ba'zida biron kishi ustidan beg'araz kulib qo'yar, lekin ko'pincha o'zining yangi mulohazalari, ajoyib aforizmlari bilan og'zimizni ochirib qo'yardi. Shunday aforizmlaridan bittasi hali-hali esimda: agar ideal jinoyatlar mavjud emas ekan, muqarrarki, unday jinoyatlarni fosh qilish uchun ideal usullar ham yo'q.

Lekin bu aksioma uning muallifiga dohil emas, zero Aristotel Baks bunday usullarni bilardi.

Garchi Aristotelning muvaffaqiyatlari sababi to'g'risida ko'p o'ylasam ham, hech qachon biron-bir aniq xulosaga kela olmagandim... Xo'sh, u qanday ishlardi? Birinchidan (buni oldin ham aytganman), u hech qachon hech nimani qog'ozga qayd qilmasdi. Ikkinchidan, u hamisha yolg'iz ishlardi va faqat kamdan kam hollardagina bizning yordamimizdan foydalanardi. Foydalanganda ham shunday yengil-yelpi topshiriqlar berardiki, nima, bizlarni mazax qilyaptimi o'zi, deb o'ylardik. Uning fikrlari, tuzgan rejalari go'yo xayolotdek tuyulardi bizga. Taxminimcha, uning o'ziga ham shunday tuyulgan bo'lsa ajab emas. Ehtimol, u ba'zida mavhum hissiyotlarga, bashoratlarga suyangan holda ko'r-ko'rona harakat qilgandir, lekin baribir har doim nishonni to'g'ri olardi. Kim bilsin, o'sha mavhum hissiyotlar urug'i aniqlik tuprog'idan unib chiqqandir, balki.

Agar men, Aristotel Baks odamning tirnog'iga qarab uning kasbini yoki botinkasiga yopishgan loyning rangiga qarab – turar joyini aniqlab beradi, deb aytsam, yolg'on gapirgan bo'lardim. Yo'q, bu masalada Artni nafaqat buyuk ingliz Konan Doylga, balki bizga adabiy asarlardan tanish bo'lgan, uncha mashhur hisoblanmagan detektivlarga ham qiyos qilib bo'lmasdi. Lekin u o'sha izquvarlarning hammasidan ham o'tkirroq psixolog edi. Uning aytishicha, „raqibning astarini ag'dara olardi“, uning qalbiga kirib borib, niyatini bilib olardi. Uning muvaffaqiyati kafoloti ham ana shunda edi. Undagi metin mantiq, qat'iy izchillik bilan xulosaga kelishi bizlarni hayratta solardi. Uning oddiygina va juda aniq bo'lib tuyulgan kuzatuvlari samarasini ko'rib uyalganimdan cho'g'dek qizarib ketganman. Shundoqqina ko'z ostimizda ekan-u, nega e'tibor bermabmiz-a? – deb o'ylanib qolardim har gal.

Stadionda tangadek bo'sh joy qolmagan. Zabje shahri-ning konchilar komandasi „Gurpik“ Polsha futbol jamoalari ichida eng yaxshisi edi. O'yin boshlanishiga yana bir necha daqiqa bor edi, Art o'tmishni eslab ketdi.

– Esingdami, Pavel, ikkovimiz „Poloniya“ komandasiga moyil edik?

– Esimda, men hali ham o'sha komandaning ishqiboziman. „Poloniya“ga bo'lsa o'z shahrimiz komandasi bo'lgani uchun yon bosaman. Lekin „Gurpik“ juda zo'r komanda-da...

– Odamlarning ko'pligini qara?

– Shetsinliklar futbolni yaxshi ko'rishadi. Afsuski, „Poloniya“o'yinchilari ko'pincha ishqibozlarini xursand qilolmayapti.


– Bunaqada ikkinchi ligaga tushib qolishlari hech gap emas. Ana unda ko'zlari ochiladi, – deb jilmaydi Art. – Hozir sport o'yinlarining ko'pini televizorda ko'rsatishyapti, men kuzatib boraman.

– Mening televizor ko'rishga vaqtim yo'q. Faqat imkonini topgan paytlarimda stadionga kelib turaman...

O'yin mehmonlar hujumi bilan boshlandi. Bizning komanda darvozasi oldidagi tanglik barham topgach, biz suhbatni davom ettirdik.

– Yaxshisi, sen Shetsinda yana bir necha kunga qol, – deb taklif qildim men. – Bu yerda ham shvedlar topiladi, o'shalar bilan til o'rganishni mashq qilaverasan. Vaqt topib bir kun kechqurun seni „Sharshara“ga olib chiqardim. Uning dovrug'ini eshitgandirsan?

– Ha, gazetalarda o'quvdim. Tushunmadim, nimasi yaxshi ekan uning. Oshna, kissamda faqat to'rt ming zlotix bor. Shu pulga ijarada turishim, yeb-ichishim va uyimga yetib olishim kerak. Sen bo'lsang menga qimmatli aysh-u ishratni taklif qilyapsan.



– Taklif qilyapman-ku seni! Bir miriqib o‘tiramiz, tomosha ko‘ramiz, qizlar bilan tanisharmiz... balki. Axir nishonlashimiz kerak-ku, uchrashganimizni! Men sening Misrdan, Angliyadan, Hindistondan yuborgan xatlaringni oldim. U yerlarda qilgan ishlaring haqida so‘zlab berarsan.

– Buning tarixi uzun. Agar bu uchrashuvimizni nishonlamoqchi bo‘lsang, meni muzeyga olib bor. Undan keyin, aytishlaricha, shahringizda juda chiroyli qasr bormish. Portni ham, verfni¹ ham ko‘rsam devdim. Kel, oshna, shu bugunoq futboldan keyin ekskursiyaga bora qolaylik, chunki ertaga men Svinouyssega jo‘nab ketishim kerak. Bilasanmi, shved fonetikasini o‘rganish unchalik oson emas.

– Axir sen u yerda muttasil shved tilini o‘rganish bilan shug‘ullanmassan?

– Qaniydi bironta dilkash topilsa! To‘g‘ri, dam olishim ham kerak. Keyingi paytlarda juda ko‘p ishlashimga to‘g‘ri keldi. U yerning plyajlarini maqtashadi.

– Ha, Svinouyssening plyajlari haqiqatan ham juda go‘zal, u yerning qizlari ham...

– Ko‘rib turibman, do‘stim, nimadandir ko‘ngling g‘ash. Qani, menga yoz yuragingni, qariya.

– Bilmadim, kerakmikin senga aytishim. Lekin chindan ham boshim qotgan. Doim shu haqda o‘ylayman...

– Nima haqda?

– Bilasanmi, Art, o‘tgan yili Svinouyssedagi xususiy pansionatda bir ayolni o‘ldirishgan edi. Pansion ham allaqanday qalang‘i-qasang‘i joy emas, nufuzi baland oromgoh, unda dam oluvchilar ham izzat-e‘tiborli odamlar. Lekin biz na jinoyatchini topa oldik, na jinoyat sababini aniqlay oldik. Mutlaqo tushunib bo‘lmaydigan hodisa. Darvoqe, bu narsa seni qiziqtirishi mumkin: pansionatda bir nechta chet elliklar, skandinaviyaliklar dam olishayotgandi, yanglishmasam, shvedlar ham bor edi.

¹Verf – kemasozlik ustaxonasi.

- Ha, bu narsa qiziqtirishi mumkin... lingvistni.
- Bu hali hammasi emas. Bu yog‘ini eshit. Voqea tinch-osuda, farahbaxsh tabiat qo‘ynida sodir etildi: kurort, dengiz, beg‘ubor osmon, yam-yashil daraxtlar, shinam oromgoh. Mana shunday xushbahra hayot og‘ushida qotillik sodir bo‘ladi. Mutlaqo kutilmaganda...
- Militsiya va halok bo‘lgan ayol uchun kutilmaganda. Turgan gapki, qotil bunga oldindan tayyorgarlik ko‘rgan.
- Ehtimol, lekin bu narsa hozircha jumboqligicha qol-yapti.
- Ish to‘xtatilgandir? – so‘radim qiziqsinib...
- Tergovni mahalliy organlar olib borgan edi. Yaqinda u ishni menga jo‘natib yuborishibdi, hozir u mening shkafimda yotibdi...
- ...keyin u arxivga topshiriladimi? Nima, bironta ham ilintiradigan yeri topilmadimi?
- Topilmaydi.
- Hamonki militsiya shu tarzda ishlar ekan jinoyatlar soni ortib borayotganiga ajablanmasa ham bo‘ladi.
- Yo‘q, jinoyatlar sezilarli darajada kamayib boryapti, turizm, shu jumladan, xalqaro turizm kun sayin rivoj topayotgan bo‘lsa ham. Sen bilsang kerak albatta, bizlar jinoyatlarni tobora ko‘proq ocha bosh...
- Bilaman, bilaman, – deb betakalluflik bilan so‘zimni bo‘ldi Art. – Qani, ochig‘ini ayt, nega bularni menga gapiryapsan?
- Men chuqur tin olib turib, shartta dedim:
- Art, shu ishni olsang-chi!
- Do‘stim menga ko‘zoynagi orqali tikilib qaradi.
- „Shu ishni sen olsang-chi“mish! – deb mazax qildi meni Art. – Shved tili nima bo‘ladi? Qachon dam olaman? Hm... Lekin chuqurroq o‘ylab qaralsa, bechora ayolning ruhi u dunyoda azob chekayotgandir, qonun himoyachilarining noshudligidan zorlanib... Bo‘pti, Pavel, jinoyat tafsilotini

so'zlab ber menga. Bilasan, shunchaki qiziq tuyulganidan so'rayapman buni.

– Bilaman. O'ldirilgan ayolning familiyasi Rojnovska. Ismi... Qara, ismi esimdan chiqibdi. Nazarimda, „N“ yo „M“ harfi bilan boshlanardi. Natalya edi shekilli. Ha, to'g'ri, Natalya Rojnovska. Yoshi elliklar atrofida. Shetsin fuqarosi. Uning xususiy korxonasi bo'lgan...

– Qariya, – so'zimni bo'ldi Art, – u ayolning anketasini tinch qo'y. U haqdagi barcha ma'lumotlar sinchkovlik bilan tekshirib ko'rilgan bo'lishi kerak, albatta. U ayol qanday halok bo'lgan – meni shu narsa qiziqtiradi. Sen yana, jinoyat sababini aniqlab bo'lmadi, deb aytding. Nahotki ofitserlarining dono miyalarida bironta ham taxmin tug'ilmagan bo'lsa? Yo tug'ilganmidi?

– Ishni mahalliy organlar olib borishgan edi. Ular juda ehtiyotkorlik bilan ish ko'rishgan, o'zing tushunasan – chet elliklar...

– Ha, nega tushunmas ekanman. Kutilmaganda, jinoyatchi chet ellik bo'lib chiqsa-ya! Axir bu tamomila boshqacha muomalani talab qiladi-ku. Jin ursin! Men bo'lsam bunday imtiyozdan ular faqat mehmonxona va restoranlarda foydalanadilar, deb o'ylardim. Ke, qo'y, hissiyotlarga berilmay, ish haqida gaplashaylik. O'zing ham Svinouysse aholisining yarmini so'roq qilib chiqqan bo'lsang kerak-a?

Uning bu savolida piching ohangi yaqqol sezilib turardi, chunki u bizning ishlash usulimizga, yani mutlaqo ahamiyatsiz bo'lgan, eng zaif jinoyat izlarini ham nihoyatda sinchkovlik bilan, ipidan ignasigacha tekshirib, tergov qilishimizga doim shubha bilan qarardi.

– Yo'q, sen aytganchalik emas, shahar ancha katta. Biz faqat pansionatda dam olayotgan odamlardan hamda pansionat sohibi va xodimlaridangina guvohlik oldik – darvoqe, bu pansionatning nomi „Albatros“.

Lekin shu payt suhbatni bo'lishimizga to'g'ri keldi: mehmon komandaning bir hujumchisi maydon chekkasi yoqalab mardona hujumga o'tdi va „Pogonya“ o'yinchilaridan ikkitasini ketma-ket dog'da qoldirib, maydon egalarining darvozasi tomon o'qday otildi. Darvozabon uning yo'lini to'smoqchi bo'ldi, lekin mug'ombir hujumchi chapga tashlanmoqchi bo'lib, soxta harakat qildi, buni sezgan darvozabon to'pga tashlandi, shunda mehmonlarning epchil o'yinchisi to'pni u oyog'idan bu oyog'iga otib, uni egasiz qolgan darvozaga yo'naltirdi. Minbar ayanchli nolalardan qattiq larzaga keldi va „Gurnik“ komandasiga moyillik bildiruvchi o'nlab ishqibozlarning quvonchli hayqirig'ini bosib ketdi. O'yin mehmonlar foydasiga bir-u nol bo'ldi.

– Chakkimas! – deb ma'qulladi do'stim, – hamma himoyachilarni xuddi go'daklarday aldab o'tdi. Ha, azizim Pavlik, „Poloniya“ning ikkinchi ligagi tushib ketishiga bir bahya qoldi.

Stadion misoli bo'ronday guvullardi. Minbarda, yon-atrofimizda hafsalalari pir bo'lib o'tirgan ishqibozlar darhol ahvoli ruhiyalarini ko'tarish chorasini ko'ra boshladilar. Mana, o'yin tugagach, farrosh ayollar yana bir dunyo shishalarni yig'ib oladigan bo'lishdi...

– Xo'sh, qay yo'sinda o'ldirilgan edi o'sha ayol? – Baks, komandamiz haqidagi qochirig'iga javob qilishimni kutmay, yana suhbatimiz mavzusiga qaytdi.

– Uni uxlab yotgan paytida bo'g'ib o'ldirishgan. Sharf bilan. U o'z xonasida, erining yonida uxlab yotgan ekan.

– Nima? – Art gapimga ishonmaganday menga qaradi. – Rostdanmi? Buni qara-ya! Bunaqangi qotillikni men hech eshitmagandim. Nima, eri eshitmabdiyammi? Shunaqa uyqusi qattiq ekanmi?

– Kimdir bu ishga hissa qo'shgan. Aniqladik, Rojnovska ham, uning eri ham uyquga yotish oldidan anchagina miqdorda lyuminal dorisini qabul qilishgan.

– Erini-chi? Uni narigi dunyoga jo‘natishga urinish-mabdimi?

– Yo‘q. U kechasi uyg‘onib ketib, dod solib butun pan-sionatni uyg‘otib yuborgan. Bir tasavvur qilgin-a: o‘z yonida yotgan xotini bo‘ynida sirtmoq bilan o‘lib yotsa... qanday dahshat!..

– Ana ko‘rdingmi, qariya, uylangan erkaklar boshiga qan-day savdolar tushishi mumkin ekan! Yo‘q, birodar, bo‘ydoq bo‘lib yashaganimiz ma‘qul. Demak, sharf bilan degin?

– Ha, sharfga o‘xshagan mato. Bilasanmi, odatda, san’at-ga doxil kishilar shunaqa shoyi mato bilan bo‘yinlarini bog‘lab yurishni xush ko‘rishadi.

– Bilaman. U kimning sharfi ekan?

– Esimda yo‘q. Xo‘sh, bu ish materiallari bilan tanishib chiqishga rozimisan?

Baks g‘alati bir tarzda bosh chayqab qo‘ydi, lekin bu na rad javobini, na rozi bo‘lganligini bildirardi. U hozir nima haqdadir astoydil mulohaza qilar, uni nimadir taajjubga so-layotgan edi...

– Agar tergov olib borganlardan kimdir o‘sha sharfga e‘tiborini qaratib u bilan shug‘ullangan bo‘lsa, senga masla-hatim shuki, Pavlik, o‘sha yigit bilan yaxshiroq e‘tibor qil. U odam bo‘ladi.

– Biz tergovni juda qunt bilan olib bordik, Art. Gapimga ishonaver, biz qo‘limizdan kelgan hamma ishni qildik...

– ...va ish arxivga jo‘natildi. Shundaymi?

– Afsuski, jo‘natiladi.

– Demak, ish oxiriga yetkazilmagan. Uning eng muhim tomoni bajarilmagan – jinoyagchi topilmagan.

– O‘zing ham tushunib turibsan, hech o‘xshashi yo‘q ji-noyat bu. Hech qanday sababi yo‘q uning, hech nima o‘g‘ir-lanmagan, Rojnovskalar hamma havas qiladigan er-xotin bo‘lishgan, juda totuv yashashgan, bironta ham dushmanlari bo‘lmagan.

— Hamonki qotillik oldindan puxta o‘ylangan reja bo‘yicha amalga oshirilgan ekan, — jinoyat usuli buni isbotlab turibdi — sabab bo‘lishi kerak. Sen bu fikrimni rad eta olmaysan. Buning ustiga yana, chet elliklar... Qarindoshlari masalasi qanday?

— Rojnovskaning hech qanday qarindoshi yo‘q, erining ham faqat bir-ikkita juda uzoq qarindoshi bor ekan. Lekin Rojnovskalar ular bilan hech qanaqa bordi-keldi qilishmas ekan.

— Rojnovskiyning o‘zida xotinini o‘ldirish uchun hech qanday sabab yo‘q ekanmi?

— Nima, militsiyaning bu haqda o‘ylashga aqli yetmagan, deb o‘ylaysanmi? Yo‘q, bu er-xotin juda apoq-chapoq bo‘lib yashashgan, hech qachon bahslashishmagan. Tag‘in, kim biladi deysan. Mana, sen o‘z xotinini bo‘g‘ib o‘ldirib, keyin uning jasadi yoniga bemalol uxlab yotgan erkakni tasavvur qila olasanmi?

— Men tasavvur qilmayman, men... o‘ylayman. Qolaversa, sen shuni yaxshi bilishing kerakki, hatto eng bequsur er-xotin o‘rtasida ham qotillik qilishga moyillik vujudga kelishi mumkin. Buni men emas, Bernard Shou aygtan.

— Bu qoida bizdagi hodisaga to‘g‘ri kelmaydi, Art.

— To‘g‘ri kelmaydi? Sizlar Rojnovskiyning o‘lib yotgan xotini yonida to‘shakda uxlaganiga shunchalik ishondaydaringmi?

Men, tilim kalimaga kelmay, unga baqrayib qoldim. Bu ish materiallarini — pansion ahli va o‘zga shaxslar bergan guvohliklarni, ekspertiza ma‘lumotlarini — birma-bir xayolimdan o‘tkazar ekanman, Baksga e‘tiroz bildirish uchun birona ham asosli dalil topa olmadim.

Uning navbatdagi pichinglaridan meni „Poloniya“ning shiddat bilan qarshi hujumga o‘tishi asrab qoldi. Bu hujum xuddi oldingilari singari besamara tugab, ishqibozlar biroz tinchishgach, Art yana menga yuzlanib, navbatdagi savolini berdi:

– Menga qara, Pavel, qayoqdan tanish bo‘lib chiqyapti menga Rojnovskiy familiyasi?

– Sen bu familiyani qotillik yuzasidan gazetalarda o‘qigan bo‘lishing mumkin emas. Biz tergov materiallarini matbuotda yoritmaslikka harakat qilganmiz.

– Yo‘q, bu familiyani men sportga taalluqli xotiralar tufayli esladim. Shunday bo‘lishi mumkinmi?

– Mumkin, albatta! – deb jilmaydim men, – chunki Rojnovskiy butun Polshada mashhur shaxmatchi. Bu yerda, Shet-sinda-ku eng kuchli shaxmatchi hisoblanadi.

– Faqat Shetsindagina emas. U Polshaning eng kuchli shaxmatchilaridan biri. Bir emas, bir necha marta mamlakatning terma komandasiga rahbarlik qilgan. U xalqaro toifadagi grossmeyster, esimga kelmaganini qara-ya!

– Sen yaxshiroq bilasan buni, – deb men uning fikriga qo‘shildim. Men shaxmatni Bakschalik bilmasdim, ochig‘ini aytsam, umuman shaxmat o‘ynamasdim. – Bilasanmi, Art, bu jinoyatning shaxmatga qandaydir juda bog‘liqlik tomoni bor. Tergov guruhiga boshchilik qilgan zobit menga, masalan, shunday bir voqeani aytgan edi: jinoyat sodir bo‘lgan paytda „Albatros“da dam olayotgan odamlarning hammasi – o‘zimizning fuqarolar ham, ajnabiylar ham – mohir shaxmatchilar ekan. Ular pansionatda hatto shaxmat turnirini ham o‘tkazishibdi.

Aristotel Baks o‘ylanib qoldi. U ko‘zini futbol maydonidan uzmas ekan, xayolidan tamomila boshqa narsalar kechayotgani yaqqol sezilib turardi. O‘yin uni butunlay qiziqtir-may qo‘ygan edi. Men uning o‘y surishiga xalal bermay jim o‘tiraverdim. Mana, nihoyat, u iyagini qashlab qo‘yib menga qaradi. Sho‘x ko‘zlari chaqnab turardi.

– Pavel, – dedi u, – shaxmat – ajoyib o‘yin. Ayt-chi, Svi-nouysseda menga bironta mo‘jazzina kulba topilarmikin?

– Demak, rozisan-a? – dedim men suyunib ketib.

– Ayt, topiladimi yo yo‘qmi?

– O, men senga shahardagi eng zo‘r mehmonxonaning eng shinam koshonasini topib beraman.

– Yo‘q, menga bo‘g‘ot tagidagi bironta odmigina xona ham bo‘laveradi. O‘zing yaxshi bilasan, men ko‘p yillar shapaloqdakgina xonada yashadim, u yerda nafaqat kitoblarimga joy bor edi, hatto o‘zim ham bemalol oyog‘imni uzatib yota olmasdim. Ha, men ko‘nikib qolganman. Odmigina hujra bo‘lsa bo‘ldi menga. Faqat, xarajatlarni boshqarmangiz to‘laydi, o‘rtoq mayor. Aytmoqchimanki, tejamkor bo‘l.

– Juda soz, Art, kelishdik. O‘yin tugagach, sen bilan yaxshilab tushlik qilamiz, kechqurun esa, baribir, „Sharshara“ga borib maishat qilamiz.

„Poloniya“ yutqazdi. Gurra ko‘tarilgan olomon bizni oyog‘imizni yerga tekkizmay stadiondan olib chiqib qo‘ydi. Mening og‘zim qulog‘imda edi. Mamlakatimizning eng donishmand kishilaridan birini bu o‘ta mavhum voqea bilan shug‘ullanishga ko‘ndiraman-u, suyunmaymi? Ehtimol, „Albatros“da sodir etilgan jinoyat sirini ochishga muvaffaq bo‘larmiz endi? Ehtimol? Yo‘q, albatta yechiladi u jumboq! Natalya Rojnovskaning qotili, u kim bo‘lmasin, shu daqiqadan boshlab halovatini yo‘qotadi...

* * *

Ertasi kuni ertalab men bosh og‘rig‘iga ikki shisha suyuq qatiq ichib ham hech o‘zimga kelolmadim. O‘zimni majburlab zo‘rg‘a o‘rnimdan turdim va bir amallab dush qabul qildim. Har dushanba kuni bo‘lim xodimlari bilan qisqagina operativ majlis o‘tkazar edim. Demak, xohlasam-xohlamasam, ishga otlanishim kerak... Aristotelga maza, u hali bemalol uxlayverishi mumkin. Biz u bilan faqat soat o‘nda boshqarmada uchratishga kelishib qo‘yganmiz.

Ishxonada meni surpriz kutayotgan edi. Hozirgina Svinouyssedan telefonogramma olinibdi. Uni o‘qidim-u,

boshim qotib qoldi va butun aqliy layoqatimni ishga solishga urinib ko'rdim, ammo hozirgi ahvoli ruhiyamda bu oson bo'lmadi. Bu ish men kecha o'ylagandan ancha murakkab bo'lib chiqdi. Shu zahoti hujjatlar solingan, ancha chang bosgan papkani qo'linga oldim va bu endi unutila boshlagan ishni varaqlab, ancha o'ngigan fotosuratlarni ko'zdan kechirib, o'sha mash'um qotillikni xotiramda qayta tiklashga urindim. Keyin papkani yopib, undagi „Ish to'xtatilgan“ degan yozuvni flomaster bilan o'chirdim-da, bugun ertalab olingan telefonogrammani papkadagi hujjatlarga qo'shib qo'ydim.

Tezkor majlisni o'tkazib bo'lib, xonamga qaytdim, o'z o'rnimga borib o'tirishga ulgurmay, telefon jiringlab qoldi.

– O'rtoq mayor, – bu navbatchi serjantning ovozi edi, – sizni so'rab kelishdi. Hozir ...ismini aytishga qiynalyapman. Yana bir qaytaring, grajdanin!

– So'rama familiyasini, darhol bu yerga boshlab kel uni!

Yana bir daqiqadan keyin shubhalangan serjant kuzatuvida Art jilmayib kirib keldi va „tap“ etib o'zini oromkursiga tashladi. Serjant chiqib ketdi.

– Nahotki u Aristotel degan ismni umrida hech eshitmagan bo'lsa? Meni Marsdan tushgan maxluq deb o'yladi shekilli, rosa pasportimni aylantirib ko'rdi. Bilasanmi, men o'zimni uncha yaxshi his qilmayapman.

– Men ham, yangi gapni eshit, ertalab Svinouyssedan telefonogramma kelibdi. Mana u. Bugun tunda „Albatros“da Mariya Reshelni o'ldirmoqchi bo'lishgan, esingdami, kecha senga bu ro'zg'orboshi va oshpaz ayol haqida gapiruvdim.

– Iye, unda nima qilib o'tiribmiz bu yerda? – U jinoyat sodir bo'lgan yerga shu zahoti o'qday uchib bormoqchi bo'lganday sakrab o'rnidan turib ketdi.

– Ha, biz chindanam hoziroq yo'lga tushishimiz mumkin, lekin buyumlaring...

– Ular o'zim bilan birga! – deb Art ko'pni ko'rgan safar

sumkasiga shapatilab qo'ydi. – Hamma yukim shu yerda. Mana bu boyliklarga ham joy topiladi, – u hujjatlar papkasini shartta olib sumkasiga soldi.

Men muovinimga qisqagina xat yozib, Svinouyssedagi mahalliy militsiya bo'limiga bizning jo'nab ketayotganimizni xabar qilish haqida farmoyish berdim. Yana bir daqiqadan keyin militsiyaning „Fiat“ mashinasi bizni kurort tomon shamoldek uchirib ketdi.

– Menga seni Xudoning o'zi yetkazdi, Art. Endi ko'r-yapsanmi buning qanday dushvor muammo ekanligini?

Baks orqa o'rindiqqa joylashib o'tirib olib, ish materiallarini ko'zdan kechirarkan, bu dushvor muammo bilan tanishardi. U dam-badam „hm... hm...“ deb qo'yib, bir nimalarni g'o'ldirar, ba'zi bir hujjatlarni o'qimay chetga olib qo'yar, ba'zilarini bir necha martalab qayta-qayta o'qirkan, to'satdan bir nuqtaga tikilgancha qimir etmay qolar, so'ng sochlarini tutamlab, ko'ziga tushgan soch tolalarini qaytarib tashlab, yana hujjatlarni varaqlashga tushardi. Mana nihoyat u papkani yopdi va bir so'z ham aytmay menga qaytarib berdi. Aminmanki, tergov materiallarining eng mayda tafsilotigacha, fotosuratlarining har bir belgisi, har qaysi e'tiborsiz nuqqasigacha uning o'ta nodir xotirasida muhrlanib qolgan edi.

– Har holda, sharf masalasi nima bo'lgan edi?

– Hech nima aniqlay olishmadi, shekilli. Nega bu arzimagan matohni surishtirib qolding?

– Matoh degin? Qoyilman bo'limingdagi odamlarga!

Baks bir nimalarni o'ylab, sukutga toldi, so'ng to'ng'illab qo'ydi:

– Qiziq, juda qiziq.

– Nima qiziq?

– Shunisi qiziqki, bugungi chala bo'g'ilgan ro'zg'orboshi ayol shaxmat o'ynamas ekan.

Turgan gapki, men hech nimaga tushunmadim.

– Art, Svinouysseda yuz bergan qotillikning shaxmatga nima bog‘liqligi bor? Shuningdek, bugungi ayolning joniga qasd qilinishining ham?

– Osmondagi oyning suvdagi baliqqa qanday bog‘liq jihati bor? – deb u savolimga savol bilan javob qildi. – Bir qaraganda, ular bir-biriga mutlaqo begona tushunchadirlar, lekin shunga qaramay ular o‘rtasida bog‘liqlik mavjud. Sen baliqchilardan baliqni qachon tutgan yaxshi – dengizda suv ko‘tarilgan paytdami yo pasaygan chog‘dami, deb so‘rab ko‘r, ular senga aniq javob berishadi.

Art o‘zining badhazm fe‘lini shu tarzda namoyish qilib, so‘ng asosiy masalaga o‘tdi. Bu juda uzun va g‘oyatda chalkash monolog edi. Men do‘stimning fe‘lini yaxshi bilganim uchun, gapini hech qanday savol bilan bo‘lmay eshitdim. Chamasi, jumboqli jinoyatning ochilmay qolganligi Artga qattiq ta‘sir qilgan edi, buning ustiga, bugungi hodisani aytmaysizmi...

Qisqasi, Art yonida men borligimga ham parvo qilmay, ovoz chiqarib mulohaza qila boshladi; u menga ma‘lum va noma‘lum bo‘lgan yoki xiyol xotiramdan ko‘tarilgan dallillarni birma-bir g‘alvirdan o‘tkazar, ularni bir-biriga yaqinlashtirib, qiyoslab ko‘rar va turgan gapki, o‘sha pansionatda sodir etilgan yangi jinoyatni ham ular bilan bog‘lashga urinib ko‘rardi.

– O‘n to‘rtta guvoh so‘roq qilinibdi. Taxminimcha, jinoyatchini aynan shu guvohlik berganlar ichidan qidirish kerak. Xo‘sh, ular kim o‘zi? Pansionat sohibi Roman Borovskiy. Juda badavlat odam. Svinouyssedagi hashamatli pansionatidan boshqa yana fotoatelyesi ham bor ekan. Yoshimi? Ayni qirchillama yigit yoshida. Uylanmagan. Ahmoq odamga o‘xshamaydi, chunki bergan guvohliklarida birona ham aniq fikr aytmagan. Keyin: aka-uka ikki shved – oltmish yoshli, xotini bilan ajrashgan Ingmar Svenson va uning ukasi Volf, xotini hamda o‘n ikki yoshli o‘g‘li bilan.

Bizning hushyor militsiyamiz shu bolani ham so'roq qilishni (hattoki uch marta) unutmagan. Barakalla, azamatlar! Agar u hozir o'ldirmagan bo'lsa, ammo bundan keyin bizning saodatli yurtimizda biron kishining joniga qasd qilishga jahd qilsa, oldin o'n marta o'ylab ko'radi. Ha, jinoyatni aniqlash – juda murakkab ish...

Men Artning bu kinoya va qochiriq gaplariga e'tibor bermay, uning fikrlari yo'nalishini kuzatdim.

– Ajnabiylarning oxirgisi – Peter Nilson, oslolik advokat. Endi polyaklar; bular: bizga tanish bo'lgan Rojnovska, yosh vrach Poltika, toliba qiz Bojena Chedo (ko'zga yaqin, do'ndiqqina qiz bo'lsa kerak), jabrlangan Mariya Reshel va pansionatning ikki nafar xodimi: pechkalarni yoquvchi Lizenga (u ayni paytda yana duradgor, chilangar, hovli xizmatkori ham) va xodima Rozaliya Lukasevich (u ayni paytda yana ofitsiant va farrosh ham). Guvohlik berganlarning hammasi uni Rozochka deb atashgan – istarasi issiqqina va juda parishonxotir qiz bo'lsa kerak.

Gap shu yerga kelganda men ham qochiriq qilishdan o'zimni tiyolmadim.

– Toliba qizni do'ndiqqina, oqsoch qizni parishonxotir deb xulosa chiqarishga shoshqaloqlik qilmadingmi, Art?

U menga xuddi kaltafahmimgidan hayron bo'lganday tikilib qoldi.

– Hech qanday shoshqaloqlik yo'q bu yerda. Men, agar kerak bo'lsa, bu ikki qiz haqida juda ko'p narsalarni aytishim mumkin. Mana masalan, toliba qizni olaylik. O'zing o'ylab ko'r, u endi yigirmaga kirgan, jismoniy tarbiya institutida tahsil oladi, demak, qaddi-qomati kelishgan, sarvqomad qiz. Unga varshavalik mashhur jurnalist astoydil shaydo bo'lib qolibdi. Nima, u xunuk qizning ketidan ilakishib yurarmidi?

– Hay, toliba qiz masalasida meni deyarli ishontirding. Aytganday, Milevskiyning yoshi salkam ellikda, aytmoqchimanki, senda barcha imkoniyatlar bor...

– Keyin ko‘ramiz, – Art bu hazilimga e‘tibor bermadi. – Go‘zallik – bu muhim omil, albatta, lekin bizning ishimizda eng muhim narsa go‘zallik emas, balki... shaxmatdir!

– Iye, nima aloqasi bor shaxmatning? Sen menga jurnalist haqida gapirmoqchi eding.

– Bu Yanush Milevskiy degani juda alomat shaxs, men uning televizorda olib boradigan sport ko‘rsatuvlaridan ke- lib chiqib shunday deyapman. Sen ham bunga e‘tibor bergan bo‘lishing kerak. Bu qiziqarli shaxsning ko‘rsatuvlari ham juda qiziqarli o‘tadi. Qisqasi, u teran zakovat sohibi. Lekin shaxmat...

– Sen, bilishimcha, bu shaxmat ta‘qibidan qutilolmayot- ganga o‘xshaysan.

– Gaping to‘g‘ri, men uni bir zunga ham xayolimdan chiqara olmayapman.

– Nega axir? Dam oluvchilar xuddi shu tarzda preferans yoki brij¹ o‘ynashlari ham mumkin edi-ku. O‘tgan yili butun avgust oyida yomg‘ir tinmadi, boshqa nima ham qilardi ular?

– Gaping to‘g‘ri, ular preferans o‘ynashlari mumkin edi. Lekin o‘ynashmagan! Bilasanmi, „Albatros“dagi o‘n to‘rt kishining to‘qqiztasi – shaxmatchi. Agar pechkaga o‘t yo- quvchi bilan ayollarni hisobga olmasak – hamma! Tasodifmi bu? Shaxmat oson o‘yinlardan emas. Nahotki shavkatli mi- litsiyamizning ziyrak mayori bunday dalilga e‘tibor berma- gan bo‘lsa? Nima bo‘ldi o‘zi? „Albatros“ga dam olgani kel- gan hamma ajnabiylar – shaxmatchi, Rojnovskiy-ku haqiqiy professional, jurnalist Milevskiy shaxmat nazariyasi bobida taniqli mutaxassis, pansionatning xo‘jayini bo‘lsa shaxmatni yaxshigina o‘ynaydi. Sen nima deysan bunga?

– Vaziyat taqozosi.

– Balki, shundaydir. Lekin men bir narsaga juda qat‘iy ishonaman: jinoyatchi debyutlarni juda yaxshi nishon-

¹Preferans yoki brij – qarta o‘yinlarining nomi.

ga oladi, shaxmat kombinatsiyalarining barcha sirlarini va endshpilning nozik tomonlarini puxta o'rgangan. Men shuni bildim va shunga ko'ra hozirdanoq bir necha kishini, ya'ni umuman shaxmat o'ynamaydigan yoki yomon o'ynaydigan bir necha kishini shubha ostidagi odamlar safidan chiqarib yuborishim mumkin. Bu kichkina ish emas.

– Kichkina emas, lekin jinoyatchini topish uchun yetarli ham emas.

Ammo shuning o'zi Rojnovskani o'ldirganlikda shubhalinganlardan biri jismoniy tarbiya institutining sohibjamol tolibasidan shubha qilmaslik uchun yetarli dalildir.

– Nima, u shaxmat o'ynamas ekanmi? – dedim men kulib.

– Xuddi shunday.

„Fiat“ qit'ani Volin oroli bilan ulagan ko'prikdan o'ta boshladi. Yana yarim soatdan keyin uzoqda Svinouysse chekkasidagi uylar ko'rina boshladi. Parom to'xtaydigan yerda yuk mashinalar, yengil mashinalar turnaqator tizilishib turardi. Yaxshiyamki, haydovchi paromchi yigitlar oldida alohida huquqqa ega ekan, navbatda turmay paromga chiqish imkoniyatiga ega bo'ldik. Parom kanal bo'ylab suza ketdi va biz shaharning ajoyib manzaralarini zavq bilan tomosha qila boshladik. Hamma yoq ko'kalamzor, chindanam butun shahar misoli ulkan bir istirohat bog'i edi! Chap tomonda esa, zamonaviy baland-baland imoratlar qad ko'targan. Kanalning gavjumligini aytmayisizmi! Katta-yu kichik turli toifadagi kemalar, dunyodagi barcha mamlakatlarning bayroqlari... Hamonki, Shetsinni haqqoniy tarzda Polshaning shimolga boquvchi ko'zi deb ta'riflar ekanlar, Svinouysse, shubhasiz, shu ko'zning qorachig'i edi...

Parom manzilga kelib to'xtadi. Odamlar sohilga tushish taraddudida tipirchilab qolishdi. Hamma chiroyli yozlik kiyimlar kiygan, quvnoq kayfiyatda, gangir-gungir gaplashishadi, sho'x-sho'x kulishadi, hazil-mutoyibalar yangraydi –

axir ular bu serquyosh iyul oyida dengiz bo'yiga dam olgani kelishyapti-da.

Hamma tarafdin yerga tusha boshladi. Bizning mashinamiz ham sohilga tushdi. Biz mashinaga o'tirib shaharning dengizbo'yi hududi tomon yo'l oldik. Men ko'z qirimni tashlab, xayolga cho'mgan do'stimni kuzatib boryapman.

* * *

„Albatros“ pansionati chiroyli binoda joylashgan edi; uni uch qavatli deb atasa ham bo'lardi, holbuki bu uchinchi qavat faqat bo'g'ot ostidagi boloxonadangina iborat edi. Umuman, bu juda yoqimli uy edi; uning tomi to'q qizil cherepitsa bilan yopilgan bo'lib, tomning to'rt burchagiga faqat chiroyli manzara kasb etish maqsadida ko'rkam minorachalar qo'ndirilgan edi. Binoning devorlari esa sarg'ish rang bilan bo'yalgan bo'lib, derazalarning piramonlaridagi va yerto'la ustidagi g'ishtlar qo'ng'ir rangda edi.

Bu asosiy binoning orqasida boshqa imoratlar – garajlar, omborxonalar bor edi. Bino va imoratlarning tevarak-atrofi yaxshi parvarish qilingan yam-yashil maysazor bo'lib, bu yerda uch-to'rt tup qoraqarag'ay mag'rur qad ko'tarib turardi. Bir so'z bilan aygtanda – bag'oyat go'zal manzara...

Pansionat juda qulay joyda – dengizbo'yi xiyoboni o'tgan yerda edi, lekin bu xiyobonning gavjum yeri emas, balki eng oxirgi sokin joyi edi. Pansionatdan narida imoratlar yo'q, u yerda faqat quyuq daraxtzor bilan qoplangan tepalik bo'lib, bu tepalik orqasidan Germaniya chegarasi o'tgan edi.

Biz zinadan ko'tarilib pansionatning asosiy eshigidan uning dahliziga kirdik. Bu yerda bizni uch kishi kutib turardi. Bu uchta erkakning biri rayon militsiya bo'limining tergovchisi bo'lib, familiyasi Vyater edi. Kun jazirama issiq bo'lishiga qaramay, qora kastum kiyib, galstuk bog'lagan ikkinchi erkakning prokuror ekanligi bir chaqirim naridan

sezilib turardi. Men ana shunaqa endi tuxumdan chiqqan prokurorlar bilan hamkorlik qilishni hech yoqtirmayman. Ehtimol mening omadim yurmaganidir, lekin menga, xuddi atayin qilingandek, doim aqli noqis, tajribasi yo‘q, o‘ziga bino qo‘ygan po‘rim prokuror yigitchalar ro‘para keldi. Uchinchi erkak – kaltabaqay, oliftachasiga mo‘ylov qo‘ygan, qo‘ng‘iz misol qoradan kelgan odam bizga peshvoz kela boshladi. Aftidan, pansion xo‘jayini Borovskiy shu bo‘lsa kerak.

– Xush kelibdilar, xush kelibdilar? – deb u atrofimizda parvona bo‘lar ekan biz bilan ko‘rishish uchun terlagan yumshoq kaftini uzatdi. – Ko‘zimiz to‘rt bo‘lib kutayotuvdik.

Chamasi, bu odam Baksga ham yoqmadi shekilli, bitta betakalluf savol bilan uning „popugini pasaytirib“ qo‘ydi.

– Bu pansionat nima deb ataladi? – go‘yo qiziqayotgan odamday savol berdi Art.

– „Albatros“, hurmatli pan, „Albatros“.

– Men bo‘lsam „qirq qaroqchi“ dargohiga kelib qoldimmi, deb o‘ylabman.

U yana bir qochiriq gap aytishga og‘iz juftlagan edi, lekin bu payt tergovchi yigit yaqin kelib menga vaziyatni bayon qilmoqchi bo‘ldi. Men qo‘l ishorasi bilan uni gapirtirmadim.

– Hojati yo‘q, poruchik, jabrlangan ayol qayerda?

– O‘zida, o‘z xonasida to‘shakda yotibdi, – dedi pansionat xo‘jayini poruchikning og‘iz ochishiga imkon bermay. – Ko‘p azob chekdi sho‘rlik ayol!

– U bilan gaplashsa bo‘ladimi?

– Bo‘ladi menimcha, lekin oldin men bilan gaplasha qoling.

– Siz bilan, yaxshisi, keyin gaplashamiz. Vrach nima dedi?

– U ukol qildi, menimcha, tez orada oyoqqa tura olsa kerak. Oh, pan mayor, xayriyat, bechora jon saqlab qoldi, yo‘qsa, oqibati bundan ham yomon bo‘lishi mumkin edi.

– Poruchik, siz shu yerda kutib turing, men hamkasbim bilan jabrlanganning oldiga bir zumga kirib chiqaman, – dedim men prokurorning ranjigan qiyofasini go‘yo payqamagandek. Ha, baloyam urmaydi unga. Shetsinda bu toifadagi og‘alar men bilan bundan ham sovuqroq munosabatda bo‘lishgan.

Biz Borovskiyga ergashib uzun yo‘lakdan ketib borardik. U xuddi o‘rdakka o‘xshab tovonlarini sirtga qayirib al-pang-talpang yurar ekan.

Borovskiy yo‘lakning chap tomonidagi eshiklardan birini ochdi. Xonadagi torgina katda ancha yoshga borib qolgan ayol peshonasiga kompress qo‘yib, adyol yopinib yotardi. Kat yonidagi stolchada sun‘iy gullar qo‘yilgan guldon turar, stol yonida eskirgan shifoner bor edi. Xona derazasiga oppoq parda tutilgan, yerga ola-chipor gilam to‘shalgan, devorga esa qaysiyam bir avliyoning rasmi osilgan edi.

– Biz militsiyadanmiz, – dedim men ayol bilan ko‘rishib bo‘lgach. – Biz uchun bir necha daqiqa vaqtingizni ajrata olasizmi?

Ayol bazo‘r bosh irg‘ab rozi bo‘ldi. So‘ng og‘ir xo‘rsinib qo‘yib dedi:

– Endi ancha yaxshi his qilyapman o‘zimni, faqat boshimning og‘rig‘i haliyam qolmayapti.

Uning talaffuzidan, nemis ayoli ekanligini darhol payqab oldim. Buning uchun tilshunoslikdan xabardor bo‘lish shart emasdi.

Men bemorning bosh tomonida turgan stulga o‘tirdim. Baks, poruchik va pansionat xo‘jayini eshik oldida turib qo‘lishdi.

– Iltimos, nima bo‘lganini so‘zlab bersangiz.

– Oh, muhtaram pan, – deb ayol yana og‘ir xo‘rsinib qo‘ydi. – Men juda mudhish bir baloga muhtalo bo‘ldim! Eng muhimi – sababini bilmayman. Kimga kerak ekan me-

ning jonimga qasd qilish? Dushmanlarim yo'q edi, chunki umrim bino bo'lib pashshaga ham ozor bermaganman. Bu qandaydir dahshatli tushunmovchilik. Axir men kimning yo'liga g'ov bo'lishim mumkin?

– Iltimos, o'zingizni bosing, biz ham shu narsani oydinlashtirgani kelganmiz.

– Xullas, bunday bo'lgan edi. Men o'zimning doimiy odatim bo'yicha kech soat o'n birda uyquga yotdim, yotdim-u, hadeganda uyqum kelavermadi, o'zimni yomon his qila boshladim.

– Boshingiz og'ridimi?

– Ha, yo'q, oshqozonim negadir ezg'ilib og'riy boshladi. Hatto o'rnimdan turib, kechirasiz, hojatgayam chiqib keldim. Ehtimol, bironta aynigan ovqat iste'mol qildimmikin, deb o'yladim. Holbuki, biz oshxona uchun doim eng yangi va sarxil ozuqalarni xarid qilamiz. Hojatxonada judayam yomon bo'ldim, boshim aylana boshladi. Zo'rg'a o'rnimga qaytib kelib yotdim, sal ko'zim ilinganday yo hushimdan ketganday his qildim o'zimni. Ana shunda boshlandi... o'sha dahshat. – Ayolning iztirobli ko'zlarida qo'rquv alomati aks etdi. – Ko'kragimdan zilday bir narsa bosayotganini, nafasim qaytib qiynalayotganimni sezib, uyg'onib ketdim. Oh, bu shunday dahshat ediki, muhtaram pan! Avvaliga, qo'rqinchli tush ko'ryapman, hozir uyg'onсам hammasi o'tib ketadi, deb o'yladim. Bilasizmi, o'tgan yili yozda yuz bergan fojidan keyin tez-tez shunaqa qo'rqinchli tushlar ko'rardim.

Ayol go'yo o'zining bemalol nafas olishi mumkinligiga ishonch hosil qilmoqchi bo'lganday, hikoyasini to'xtatib, chuqur xo'rsinib qo'ydi va boshidagi kompressni to'g'riladi. So'ng yana hikoyasini davom ettirdi:

– Shu mahal men birdan tush ko'rmayotganimni, kimdir chindan ham meni bo'g'ayotganini his qildim. Men o'zimni uning changalidan qutqarish uchun astoydil tipirchilab, dod soldim, uni itarib yuborishga urindim – keyin nima

bo'lganini eslolmayman. Hushimdan ketgan bo'lsam kerak. Yo tavba!

– Tinchlaning, hammasi o'tib ketdi.

– Hushimga kelganimda, xonamda chiroq yongan, hurmatli pan Roman boshim uzra engashib turardi. – Ayol Borovskiyga minnatdorona nigoh tashladi.

Ayol hali juda zaif edi, lekin men, shunga qaramay, eng muhim narsalar to'g'risida bilib olishim kerak edi.

– Agar imkoningiz bo'lsa, iltimos, yana bir savolimga javob bersangiz. Siz uyquga yotmasdan oldin spirtli biron nima ichganmidingiz?

Pani Reshel bir daqiqa o'ylanib qoldi.

– Ha, chindan ham, ikki ryumkagina vino ichuvdim... er-xotin Svensonlar va... haligi, familiyalari hech esimda turmaydi, rassom bilan xotini aytmoqchiman... shular davrasida ichgandim. Davramizda pan Milevskiy ham bor edi, ikkinchi ryumkani menga shu pan taklif qiluvdi. Shunday yoqimli, xushtakalluf kishining qo'lini qaytarib bo'ladingmi? Xullas, bu yerga to'planganimizni nishonlab ichdik-da. Bu safar dam oluvchilarning guli to'plangan edi, shunday emasmi, pan Roman? Kechasi o'zimni birdan yomon his qila boshladim.

– Oshqozoningizdagi og'riq o'sha ikki ryumka vinodan ham bo'lishi mumkin. Bilishimcha, siz spirtli ichimliklarni uncha ko'p iste'mol qilmasangiz kerak-a?

– Men umuman ichmayman, muhtaram pan. Nimagayam ichdim vinoni?

Men bu qisqagina suhbat uchun ayolga minnatdorlik izhor qildim, tezroq tuzalib ketishini tiladim. Biz bemor ayol bilan xayrlashib, xonasidan chiqdik.

Xollda bizni poruchik kutib turgan edi. Prokuror, qattiq ranjigan bo'lsa kerak, ketib qolibdi. Biz Art va militsiya ofitseri bilan chetroqqa o'tdik.

– Tergovni Aristotel Baks olib boradi, – dedim men po-

ruchikka. – Sizning vazifangiz – unga har jihatdan yordam qilish. Buyuraman, siz pan Baksning barcha topshiriqlarini bajarasiz, yana yodingizda bo'lsin – uning buyruqlari sizga qanchalik alomat va g'ayritabiiy bo'lib tuyulmasin, hammasini tez va aniq bajarishingiz shart. Agar ayrim topshiriqlar ma'nosiga tushunib yetolmasangiz, hech xijolat chekmang. Uning bironta buyrug'ini bajarmasangiz, boshingiz bilan javob berasiz. (O'tgan yilgi mash'um ishimiz meni ehtiyotkor bo'lishga undayotgan edi.)

– Buyrug'ingiz bajariladi, muhtaram mayor! – Ofitser do'stinga boshdan oyoq diqqat bilan razm solib chiqdi; uning bu qarashida ham taajjub, ham tasanno, ham ehtirorom mavjud edi. Buning hech ajablanadigan yeri yo'q edi, chunki Baksning ismi militsiyamiz xodimlarining hammasiga yaxshi tanish edi, faqat xizmatga yaqin kunlarda kirganlarga uni bilmasliklari mumkin edi. Art olib borgan tergov ishlari xuddi afsonadek og'izdan og'izga ko'chib yurar, ayrimlari esa hatto bizning darsliklarimizga ham kiritilgan edi.

– Rojnovska ishini siz olib borganmidingiz? – deb Art o'z vazifasini bajarishga kirishdi.

– Ha.

– Nima uchun ayolni bo'g'ib o'ldirishda ishlatilgan sharfning kimga tegishli ekanini aniqlamadingiz?

– Men hammadan – chet elliklardan ham, Borovskiyaning ham so'raganman. Hech kim sharf kimniki ekanligini bilolmadi.

Art qisqagina „hm-m“ deb qo'ydi, bu ibora uning mahalliy militsiya qo'llayotgan tergov usuliga bo'lgan munosabatini uzundan uzoq jumalardan ko'ra aniqroq ifodalab berar edi.

– Bilasizmi, – deb savol berishda davom etdi Art, – Berda himoyasi bilan Reta debyuti bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?

Shu payt bu militsiya ofitseri o'qituvchisi yozuv taxtasi oldiga chiqarib, kutilmaganda kvant nazariyasi haqida so'zlab berishni talab qilgan boshlang'ich sinf o'quvchisiga o'xshab ketdi. Poruchik, turgan gapki, churq etib og'iz ochmadiki, hozir uning qo'lidan keladigan eng aqlli ish shu edi.

– Unday bo'lsa, balki, bizga Sitsiliya himoyasining Fransuz himoyasidan nima bilan farq qilishini aytib berarsiz? – Bu savol bilan Baks bechora poruchikni butunlay lol qilib qo'ydi.

Tergovchi nima deb javob berishni bilmay, esankirab qolgandi, Baks esa kulib yuborib, mening yelkamga qoqib qo'yarkan, dedi:

– Aytmabmidim senga, tergov olib borgan shaxs shaxmat haqida hech qanday tasavvurga ega emas, deb?

Men bo'lsam bechora poruchikning xayoliga kelgan: „Bu ma'lum va mashhur Baksning sal... tomi ketgan, shekilli“, degan fikrni osongina o'qib oldim.

– Baks bajaradigan ish haqida, – dedim men vujudga kelgan vaziyatni bartaraf qilish uchun, – hech kimga, hattoiki prokurorga ham churq etib og'iz ochmasligingizni so'rayman.

– Ayniqsa, prokurorga, – deb gapni ilib ketdi Baks. – Bu yerda, pansionatda, baribir, kimligimni bilib olishsa kerak hali, bu qo'rqinchli emas, ungacha men ishning tagiga yetishga ulguraman. Bardam bo'ling, poruchik! Siz shaxmat haqidagi kitoblarni topib o'qing, aminmanki, ular sizni qiziqtirib qoladi. Shaxmat – eng yaxshi dam olish turi. Ayniqsa, eng qiyin aqliy mehnatdan toliqqan paytlarda.

Pansionat xo'jayini kelib, bizni tushlikka taklif qildi. Biz uning taklifini mamnuniyat bilan qabul qildik, chunki hozir ayni tushlik payti edi, biz bo'lsak bugun nonushta qilishga ham ulgurmagandik.

Birinchi qavatdagi kattakon bir xona pansionat yemakxonasi ekan. Garchi u yerda beshta chorburchak stol turgan bo'lsa ham, xonada hali bo'sh joylar ko'p edi. Stollarga oppoq dasturxonlar yozilgan, stullar qulay, yaxshi televizor, deraza oldida esa – pianino. Bizga istarasi issiq yosh bir qiz xizmat qilardi.

– Rozochka, – deb qizga murojaat qildi Borovski, – iltimos, bizga to'rtta tushlik va vino. Bilasizmi, janoblar, menda yana...

– Vino? – deb aftini burushtirdi Baks. – Shundoq ham jig'ildonim qaynab yotibdi – vino ichsam battar bo'ladi.

– Unda, ijozatingiz bilan, araq chaqiraymi? – Xo'jayin mehmonnavozlikni juda do'ndirib bajarayotgan edi. – Menda araqning bir necha navlari bor. Sizga ryabina arag'ini tavsiya qilaman.

– Bunday katta ro'zg'orni boshqarish sizga oson bo'lmasa kerak, – deb hayotiy mavzuda suhbat boshladim men Roza chiqib ketgach.

– Siz mutlaqo to'g'ri payqabsiz, ishim juda qiyin, – deb suhbat mavzusini davom ettirdi pansionat egasi. – Menda yana fotoatlye ham bor. Sirasini aytganda, men qiyinchiliklarni yengishga o'rganib qolganman. Bular kundalik oddiy voqea... o'tgan yili sodir bo'lgan ko'ngilsizliklar oldida. U ham yetmaganday, bugungi falokatni aytmayisizmi! Oh, peshonam qursin, taqdir menga qarshi tish qayraganmi deyman, hurmatli janoblar! Qandaydir shum qismat meni ta'qibiga olgan.

Men imkoniyat tug'ilgandan foydalanib:

– Biz ovqat paytida ishdan gaplashishni lozim ko'rmagan edik, – dedim. – Lekin hamonki o'zingiz gap ochgan ekansiz, marhamat qilib bizga kechagi hodisaning ayrim tafsilotlarini so'zlab bersangiz? Masalan, bechora ayolning faryodidan uyg'onib ketganingizda soat necha edi?

– Taxminan, tungi soat ikkilar edi. Men pani Mariyaning yordam so'rab qichqirganini, yo'q, aniqroq aytadigan

bo'lsak, uning xirillagan bo'g'iq nolasini eshitib, sakrab o'rnimdan turdim va yo'lakka otilib chiqdim. To'g'ri, men shu zahotiy oq chinqirayotgan pani Reshel ekanligini bildim, chunki birinchi qavatda undan boshqa hech kim turmasdi. Men uning xonasi eshigini itarib ochib, chiroqni yoqdim. Tan olaman – juda qo'rqib ketgan edim.

– Siz xonaga kirganingizda biron-bir g'ayrioddiy holni payqadingizmi?

– Yo'q, hech qanday g'ayrioddiy holni ko'rmadim, ochig'i, men xonaning u yoq-bu yog'iga nazar tashlamadim ham, faqat pani Mariyani ko'rdim. Ha-ya, darvoqe, uning to'shagi yonida, yerda manavi narsa yotgan ekan, – shunday deb u cho'ntagidan bir parcha shoyi chiqardi.

– Kimning sharfi bu? Bilasizmi?

– Aytolmayman. Bunaqa sharfni ko'pchilik boylab yuradi. Menda turuvchilardan, masalan, janob Ingmar Svenson, taniqli rassomimiz pan Kovalik yana ba'zi-ba'zida pan muharrir ham. Lekin aynan bu sharfni men hech kimda ko'rmaganman.

– Pani Reshel ko'rdimi buni?

– Yo'q, unga sezdirmay olib cho'ntagimga soldim. O'zingiz tushunasiz, axir o'tgan yili ham...

– Tushunamiz, tushunamiz, – deb shu chog'gacha jim o'tirgan Baks Borovskiyning so'zini bo'ldi. – Rojnovska ham xuddi shunaqa sharf bilan bo'g'ib o'ldirilgan. Lekin menga ayting-chi, nima uchun siz pani Reshelning xonasiga darrov kirmadingiz?

Borovskiyning rangi dokadek oqarib, qo'lidagi qoshiq titrab ketdi. U o'z hayajonini bosib olib, jilmayishga urinib ko'rdi.

– Ya'ni qanaqasiga? Qayoqdan oldingiz bu gapni? Lekin, to'g'ri, siz haqsiz. Kechirasiz, bu savolingiz meni kalovlantirib qo'ydi. To'g'ri, men pani Reshelning xonasi eshigiga borgach, ichkariga kirmay, u yerda biroz turib

qoldim. Ha, ha, men qo'rqdim. Bu haqda sizga boya ham aytuvdim.

– Panining eshigi chindan ham ichidan zanjirlanmaganmidi?

– Xuddi shunday. Bu juda g'alati hol edi.

– Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, siz xonaga qo'rqqaningizdan emas, balki ehtiyotkorlik yuzasidan kirgansiz. Eshikning zanjirlanmaganligi sizni hayron qoldirgan. Miyangizda pani Reshel... o'ldirilgan, degan fikr paydo bo'ldimi?

Borovskiyy Artga sinchkov nigoh tashladi.

– Ha, men xuddi shunday xayolga borgandim. Lekin bunday xayol qo'rqqanligimni inkor qilolmaydi. Bordi-yu qotil eshik orqasida pusib turgan bo'lsa-chi? Shunday bo'lishi mumkin emasmi? Qo'rqqan bo'lsam nima qilibdi? Buning hech ajablanadigan joyi yo'q.

– Ha, gapingiz to'g'ri. Sizning o'rningizda men bo'lganimda, o'lsam ham kirmasdim, boshim og'gan tomonga juftakni rostlab qolardim.

Borovskiyy Baksning hazillashayotganini ham, jiddiy gapirayotganini ham tushuna olmay, unga shubha bilan qaradi. Men suhbatimiz biroz boshqa tomonga burilganidan foydalanib, o'zimni qiziqtirgan masalalarni aniqlab olmoqchi bo'ldim.

– Pansionatingizda iyul oyida dam olganlarning hammasi jo'nab ketganmi?

– Ha, er-xotin Kovaliklardan boshqa hamma. Ular avgust oyida ham shu yerda dam olishga ahd qilishdi. Boshqa hamma dam olganlar jo'nab ketishdi. Oxirgilari kecha kechqurun xayrlashishdi.

– Avgust oyida hamma xonalaringiz band qilinganmi?

– Albatta. Mening pansionatimda xonalar hech qachon bo'sh qolmagan. Aytganday, o'tgan yilgi mijozlarimning hammasi bu yil ham shu yerda dam olishadi. Doimiy mi-

jozlaring bo'lganiga nima yetsin! Kimlar dam olishi qiziqtirayptimi sizni? Sanab berishim mumkin. Er-xotin Svensonlar o'g'illari bilan, yana bitta janob Svenson. Ular aka-uka shvedlar. Norvegiyadan janob Nilson kelgan, Svensonlarning do'sti. Juda madaniyatli odamlar...

– Yana kimlar bor?

– Yana pan muharrir Milevskiy, u ham juda madaniyatli odam. Siz uni taniysiz, u bizning mashhur sport kommentatorimiz. G'oyatda dilbar suhbatdosh, ulfatlarning jon-u dili. Yana panna Bajena Chedo kelgan, sohibjamol qiz, toliba. Pan Milevskiy bilan u, – xo'jayin xuddi bir sirni ochayotganday ovozi pasaytirdi, – sizga aytyapman, gap shu yerda qolsin-u: pan Milevskiy bilan toliba oshiq-ma'shuq, agar soddaroq qilib aytadigan bo'lsak, bir-birlariga shaydo. Oh, uning profili!

– Milevskiyningmi?

– Yo'q, panna Bojenaning. O'tgan yili yozda uni bir necha marta suratga olgan edim, juda ajoyib portretlar. Bilmadim, sizni qiziqtirarmikin fotografiya...

– Judayam qiziqtiradi-da, – dedi Baks shosha-pisha. – Men fotosuratlar yig'ishga ishqibozman. Agar siz menga, hech bo'lmasa, bir juftginasini...

– O, agar xohlasangiz sizga bir dastasini chin dildan tortiq qilaman. Yana boshqa olgan suratlarimni ham ko'rsataman, ular orasida juda ajoyiblari bor, gapimga ishonave-ring. Mutaxassis sifatida ularning qadriga yetasiz, deb o'ylayman. – Bu gapidan uning fotografiyaga juda berilganligi sezilib turardi. – Lekin, ijozatingiz bilan, gapimni davom ettirsam. Demak, bitta nomerimni er-xotin Kovaliklar egallashgan. Eri – taniqli rassom, xotini – juda yoqimtoy, dilkash ayol. Juda madaniyatli. Va nihoyat, doktor Poltika, g'oyatda basavlat yigit. Hammalari yetib kelishdi, hech kim pand bermadi.

– „Pand bermadi“ deganingizni qanday tushunish kerak? – so'radim men hayron bo'lib.

– Odatda, men hamma mijozlar bilan oldindan kelishib qo‘yaman, biz yozishma orqali dam olish muddatini aniqlaymiz, shunga ko‘ra, bironta odam oxirgi paytda bu yerga kelishdan voz kechsa, bu bilan meni ancha qiyin ahvolga solib qo‘yadi. Biz, xususiy pansionat egalari, doimiy mijozlar bilan aloqa bog‘lashni afzal ko‘ramiz. Bilasizmi, shu tarzda odamlarga ko‘nikib qolarkan kishi, shuningdek, ular ham pansionatdagi tartibga ko‘nikib qolishadi. Men uchun bu juda muhim, zero men so‘qqabosh odamman, uyimda xotinim yo‘q...

Afsus, hamma xonalar band ekan, holbuki Baks aynan shu „Albatros“ga joylashishni orzu qilgan edi. Bir urinib ko‘rsammikin?

– Attang, pansionatingizda bitta ham bo‘sh xona qolmabdi-da, – deb gap boshladim men. – Do‘stim Varshava universitetida ilmiy xodim, bu yerga uch haftaga kelgan edi – ham dam olish, ham shved tili bilan shug‘ullanish maqsadida. Afsus...

Men Borovskiyning zaxirasida bironta bo‘sh hujra topiladi deb umid qilgan edim, yanglishmabman.

– Men bo‘lsam sizni psixolog deb o‘ylovdim! – dedi pansionat xo‘jayini. – Topiladi. Menda bitta xona bor. To‘g‘ri, uncha kattamas, ammo qulay va juda shinam xona. Garchi derazasi hovli tomonga ochilsa ham, uchinchi qavatda bo‘lsa ham, salgina qorong‘iroq bo‘lsa ham, juda shinam xona. Ochig‘i, men u xonani hech qachon ijaraga qo‘ymayman, o‘zingiz bilasiz, pansionatimda dam oluvchi muhtaram zotlar... Ya‘ni, aytmoqchimanki, menda bitta bo‘sh xona bor, agar u hurmatli panga maqbul bo‘lsa...

– Maqbul, judayam maqbul, – dedi Art uning so‘zini bo‘lib. – Yotishimga joy, ishlashim uchun stol bo‘lsa bo‘ldi – boshqa hech nima kerak emas. Men ta‘tildagi odamman.

– Oh, men bo‘lsam ta‘til nimaligini allaqachon unutib yuborganman, – deb xo‘rsinib qo‘ydi pansionat xo‘jayini. –

Dengiz bo'yida yashayman-u, uni deyarli ko'rmayman. Xonaga juda qulay kat qo'yilgan, ko'rpa-to'shak bor, hozir topshiriq beraman, yozuv stoli olib kirib qo'yishadi. Faqat... bizda ijara haqi oldindan to'lanadi.

Garchi xona mo'jazzgina va ancha qorong'i bo'lsa ham, pansion xo'jayini Artdan to'rt ming zlotixni shilib oldi. Agarda do'stimning butun ishongani shu pul bo'lganida bormi, u ertadan boshlab hamma narsadan voz kechishga, tishining kirini so'rib o'tirishga majbur bo'lardi. Shunga qaramay, men Artning „Albatros“ga joylashganidan juda xursand edim. Eng muhimi, bu pansionatda yuz bergan fojia sirini ochish uchun birinchi qadam qo'yilgan edi.

Men do'stimning yolg'iz o'zini qoldirib Shetsinga qaytdim... koshkiydi uning kimlarga ro'para kelishini bilsam. Muqarrar, u jinoyatchi bilan uchrashadi. Yoki jinoyatchilar bilan. Bechora Aristotel!.. Uni xatarda qoldirishga haqqim bormidi? Har holda uni bir emas, ikki jinoyatga ozmi-ko'pmi doxil bo'lgan odamlar orasida qoldirayotganimni bilardim-ku! Axir men Artning fe'lini birgalikda olib borgan tergovlarimiz tajribasidan juda yaxshi o'rganib olgan edim-ku: u, odatda, tergovning psixologik tomoniga berilib ketib, o'zini muhofaza qilishni tamomila unutib qo'yar edi. Chunonchi, u Yuzefovada „o'z vazifasini bajarish chog'ida“ yelkasidan yaralangan edi, Varshavada ikki marta boshiga lom bilan tushirgan edilar, buning oqibatida ancha vaqtgacha kasalxonada yotishiga to'g'ri kelgandi. Mana endi, „Albatros“da ham juda xavfli jinoyatchi (yoki jinoyatchilar) harakat qilayotgani sezilib turibdi. O'tgan yili Rojnovskaning o'ldirilishida ham, kuni kecha Mariya Resheln bo'g'ib o'ldirishga urinishda ham oldindan juda puxta o'ylangan va bir xildagi vositadan, ya'ni uyqu dorisi va shoyi sharfdan foydalanish bilan jinoyatga qo'l urilganini ko'rib turibmiz.

Turgan gapki, men Svinouyssidagi militsiya xodimlari zimmasiga Artni xufiyona himoya qilish haqida vazifa yuk-

ladim, lekin baribir u uyda bo'lganida yolg'iz qolayotgan edi... lekin kim bilan?

* * *

Aristotel Baksga ajratilgan xona – boloxonada edi. Bu, aslida kichkinagina hujra bo'lib, devorlari qiyshayib ketgan, kaftdakkina keladigan darchasi pansionatning tomiga qaragan edi. Pansionat xo'jayini, nisbatan ancha shinam bo'lgan qo'shni xonaga toliba qiz Bojeno Chedo joylashganini, boloxonaning shu qatordagi derazalari hovli tomonga ochiladigan uchinchi xonasi doktor Poltikaga berilganini aytdi. Boloxonaning ikkinchi tarafidagi derazalari pansionatning old tomoniga qaragan ikki xonani varshavalik mashhur jurnalist Milevskiy egallagan bo'lib, bu xonalar, maxsus vannasi bo'lganligi sababli „koshona“ deb yuritilar ekan.

Qosh qoraya boshladi. Baks ikki soatgina mizg'ib olib, Shetsin „Sharshara“sidagi kechagi maishat asoratini ham, bugungi charchoqlarini ham daf qildi. Endi u o'z narsalarini yangi joylashgan xonasida qoldirib, juda muhim uchrashuv sari yo'l oldi. Bugun u umrida birinchi marta... Boltiq dengizini ko'radi.

Pansionat bo'm-bo'sh va sokin edi. Dam oluvchilar havoning yaxshi kelganidan foydalanib, oqshomgi sayr-u sayyohatni tark etgilari kelmas, kechlik qilgani shoshilmadi. Pansionatning xodim va xodimalari esa pastdagi qavatda o'z ishlari bilan mashg'ul edilar.

Dengiz bo'yidagi saylgoh. Sarg'ish mayda tosh sepilgan keng xiyobonlar, oralariga san'atkorona mahorat bilan turli xil shakllarda o'rnatilgan turfa rang va turli toifadagi gullar o'tqazilgan va hafsala bilan parvarish qilingan chiroyli yam-yashil maysazorlar ko'zni quvontiradi. Plitkalar yotqizilgan yo'lkalarning ikki tarafiga qandaydir antiqa shakldagi noma'lum va notanish pak-pakana daraxtlar o'tqazilgan. Tevarak-atrofdagi oddiy daraxtlardan tashkil topgan

kichik-kichik o'rmonlar ham ko'zga tashlanadi. Keng zindan dengiz yoqalab ikki tomonga cho'zilgan, boshi-oxiri ko'rinmaydigan to'lqinqaytargichlar oldiga tushish mumkin. Sohilda odamlar ko'p, ular hech qayoqqa shoshmaydilar, barmaylixotir, ohista suhbatlashadilar, hech kim bu tantanavor sukunatni buzmaydi.

Hadsiz-hududsiz dengiz Aristotel Baksni qattiq hayratga soldi. Uning bu mahobatli manzara taassurotidan o'ziga kelib olishi uchun ancha vaqt kerak bo'ldi. U xiyobon yoqalab ikki qator qilib qo'yilgan skameykalardan biriga borib o'tirdi va mo'jizakor dengiz havosidan huzur qilib to'yib-to'yib nafas oldi. Art Varshavadan bu yoqqa jo'nashi oldidan bir kitob do'konidan Svinouysse haqidagi eski bir kitobchani sotib olgan edi. Bu kitobchada oromgohning mikroiqlimi haqida, dengizbo'yi ko'rfazining noyob shifobaxsh xislatlari haqida ko'p qiziqarli ma'lumotlarni o'qigan edi, mana, endi u ana shu azon havosidan, yod, brom va hokazolarning mikroskopik tuzlari singgan eng sof havodan o'pkasini to'ldirib-to'ldirib nafas olardi. Yo'q, o'sha kitobcha „bu ulkan tabiiy ingalyatori inson salomatligi uchun nihoyatda foydali“ deganida hech ham mubolag'a qilmagan ekan.

Odamlar xiyobonda siyraklab qolishdi. Endi bu yerda faqat juft-juft bo'lib sayr qilib yurganlargina uchrardi. Bu tushunarli hol – oshiq-ma'shuqlarning sayr qilishi uchun bundan a'loroq joyni topib bo'lmasdi...

Uzoqdan sarvqad bir qiz Art o'tirgan skameyka tomon yaqinlashib kela boshladi. „Chakki emas“, – deb ko'nglidan o'tkazdi Baks qizni ko'z qiri bilan kuzatarkan. Qiz to'xtab, u yoq-bu yoqqa qaradi, panjara oldiga borib, dengizni tomosha qila boshladi. U shu alfozda biroz vaqt mayoq shu'lasi bilan yoritilgan dengiz to'lqinlarini kuzatib turdi, so'ng boshini ko'tarib, u yoq-bu yoqqa nazar tashladi-da... bizning izquvar o'tirgan skameyka tomon yo'l oldi. Artning qanchalik sarosimaga tushganini so'z bilan ta'riflab bo'lmaydi. Nima

bo'lyapti o'zi? Balki, bu qiz uning qismatidir? Yo u qizni ohanrabodek o'ziga rom etayotgan Baksning jodu ko'zimikin? „Voy, nega buncha bezovtalanyapman? Axir hech narsa bo'lgani yo'q-ku, oddiy bir tasodif, hozir hammasi o'tib ketadi“.

Qiz kelib skameykaning narigi boshiga o'tirdi, shunda Aristotel qizning har jihatdan chiroyli ekanligiga ishonch hosil qildi. Hay, nima bo'libdi shunga? Axir, u o'z fe'lini yaxshi bilar va bunday dilbar qiz bilan butun tun bir skameykada o'tirib chiqsa ham, hattoki ertasi kuni kun bo'yi yonma-yon o'tirganida ham birinchi bo'lib gap boshlamasligiga imoni komil edi, zero, hech qanday kuch Artni bunday tortinchoqlikni yengishga majbur qilolmasdi. Ha, ha, eng jaydari, bema'ni, ahmoqona tortinchoqlik edi bu. Boshqalar uning o'rnida bo'lganida, allaqachop ob-havo to'g'risidami yoki boshqa bironta odmigina, ahamiyatsiz narsa haqidami gap ochib, suhbatni boshlab yuborgan bo'lardi. Nega endi u bunday qilolmaydi? Axir ob-havo haqida ham, boshqa qator qiziqarli, ajoyib narsalar to'g'risida ham gapirishi mumkin-ku! Ha, mumkin edi, agar jur'atsizlik degan bir balo uning aqli va tilini shol qilib qo'ymaganda. O'zi doim shunaqa bo'ladi. Shuning uchun, mana, yoshi o'ttizdan oshibdiki, hanuzgacha nafaqat uylanmadi, hatto bironta qizni jiddiy tarzda ko'z ostiga olmadi ham. Mayli, bo'lganicha bo'ldi – shu yerda jimgina o'tirib, bu notanish sohibjamol qizni zimdan kuzatgancha maroqlanaveradi.

Qiz oyog'ini chalishtirdi, shunda Art uning hali-beri turib ketmasligini tushundi. Balki, bu qiz aynan shu skameykada o'z sevgilisi bilan uchrashmoqchidir? Yo'q, bunday dilbar qiz hech qanday oshiq yigitni kutishga zor emas, bu aniq. O, profili juda go'zal ekan!

Xuddi shu payt qiz yigit tomonga o'girildi: uning suhbatlashish niyati borligi yaqqol sezilib turardi. Hozir Art jon-

jon deb o'zini dengizga otgan bo'lardi, lekin uning bunday qilishiga yana o'sha jur'atsizligi yo'l qo'ymadi: bu tuyg'u yigitning a'zoyi badanini shol qilib, o'tirgan o'rniga „mixlab“ qo'ygan edi.

– Kechirasiz, – qizning ipakdek mayin va nazokatli ovozi tortinchoqlikdan mutlaqo o'zini yo'qotib qo'ygan yigitning ongiga ancha kech yetib keldi, – bilishimcha, siz bilan qo'shni ekanmizmi?

Art jidd-u jahd bilan g'ayriinsoniy kuch ishlatib, miyasini ishlashga majbur qildi. Qo'shni? Nimalar deyapti o'zi bu qiz? Axir u, bu qizni umrida birinchi marta ko'rib turibdi-ku – bu aniq, chunki uning, xotiram chatoq, deb zorlanishiga hali erta. Lekin hatto xotirasi chatoq bo'lgan odam ham shunday go'zal xilqatni unuta olmaydi. Eh at-tang, hozir bu qiz o'zining yanglishganini tushunadi-yu butun jannatiy farog'at barham topadi. Hey bola, biron nima desang-chi, tokaygacha gung bo'lib o'tirasan? Joning bormi o'zi!..

– Aytmoqchimanki, biz qo'shni ekanmiz, – deb boyagi gapini takrorladi qiz. Ana shundagina Baks ortiq mum tishlab o'tirish mumkin emasligini tushundi. Lekin kallasida biron-ta ham bama'ni fikr bo'lmasa, nima deb javob qilsin?

– Hozirgi damda, – dedi u zo'r-bazo'r, – biz chindan ham ayrim jihatdan...

– Faqat hozirgi damdamas.

– Ming afsuski, nazarimda, siz yanglishyapsiz... va men aminman...

– Men „Albatros“da turaman, uchinchi qavatda, – juda xotirjamlik bilan dedi qiz, – sizni pan Borovski bilan qo'shni xonaga kirayotganingizni ko'ruvdim. Yo yanglish-yapmanmi?

„Voy qari ahmoq! Nahotki shuniyam fahmlay olmading?“

– Siz... siz... Bojena Chedosiz-a? – Art sakrab o'rnidan turib, qizning qarshisiga kelib to'xtadi, uning tizzalari qal-

tirardi. – Ijzotingiz bilan, o‘zimni tanishtiray, Ar... Artur Kovalskiy.

– Juda xursandman, – deb javob qildi Bojena. – Bundan chiqdi, kimligimni darrov bilib olibsiz-da? Pan Borovski aytgan bo‘lsa kerak-a? Juda xushiltifot odam, to‘g‘rimi? Undan keyin, bilasizmi, juda ajoyib fotoportretlar ishlaydi. O‘tgan yili mening bir nechta portretimni ishlagan edi, ulardan bir nechtasini hatto qaysiyam bir ko‘rgazmaga yubormoqchi bo‘luvdi, men rozi bo‘lmadim.

– To‘g‘ri qilgansiz. O‘sha ko‘rgazmalarda yaxshi portretlarni o‘g‘irlab ketishadi...

– Voy, nimalar deyapsiz? U faqat kalamni suratga olardi, aytdim-ku „portretimni“ deb, eshitmadingizmi?

Art, nafaqat yaxshi eshitdim, balki portretlardan bir nechtasi menga va‘da qilindi, deb aytisha og‘iz juftladi-yu, lekin vaqtida tilini tiyib qoldi.

– Meni kechiring, xafa bo‘lmang, sal bema‘ni gap aytib yubordim.

– Hechqisi yo‘q. Svinouyssega birinchi kelishingizmi?

– Umuman, Boltiq dengizi bo‘yida birinchi bo‘lishim. Qanday ajoyib dengiz!

– Birinchi marta kelishingiz ekan, unda dengiz sinovidan o‘tishingiz kerak.

– Qanday qilib?

– Dengiz suvini ichib.

– Men dengizning yarmini ichishga ham tayyorman, shu shart bilanki, keyin men bilan biron yerga borib boshqa ichimlik ichsangiz, – deb shartta gapirib yubordi Aristotel va bunday gapga chechanligidan o‘zi ham hayron qoldi.

– Mayli, ko‘ramiz, lekin sizni ogohlantirib qo‘yay, men faqat vino ichaman. Pansionatimizdagi baxtsiz hodisa haqida eshitdingizmi?

– Ha, pan Borovski aytib berdi. Sizlarda ko‘p bo‘lib turadimi bunday hollar?

– Judayam yoqdi. Dengiz bo‘yida sayr qilish bunchalik farahbaxsh bo‘ladi, deb hech o‘ylamagan edim.

– Siz dengizni kun botar chog‘da ko‘rdingiz. Endi uni tong otar chog‘da ham ko‘rishingiz kerak. Ishqilib, ezmalik qilib joningizga tegmadimmi.

– Nimalar deyapsiz, panna Bojena, siz bilan to tong otguncha jon-jon deb sayr qilgan bo‘lardim...

Uzoqdan to‘lqinqaytargichning qorasi ko‘rindi. Qiz sandalini kiyib oldi va ular zinadan xiyobonga ko‘tarilishdi. Bu yer hali ham odamlar bilan gavjum edi, saylgohlar rang-barang chiroqlar bilan yoritilgan, son-sanoqsiz qahvaxonalar, pansionatlar, dam olish uylari, sanatoriylarning derazalari charog‘on edi.

Yigit bilan qiz pansionatning xollida eng yaqin tanishlardek xayrlashishdi. Qiz oshxona tomon yo‘l oldi, bizning izquvarimiz esa, bu yangi tanishuv taassuroti ostida va Bojenaning nima sababdan kutilmaganda cho‘chib ketgani sababini o‘ylab, sal bo‘lmasa zina yonida turgan palmaga boshi bilan urilib ketayozdi.

* * *

Avgustning birinchi kuni „Albatros“ xo‘jayini kurort mavsumining ochilishi munosabati bilan o‘z pansionatida dam olayogtanlar uchun tansa oqshomiga o‘xshagan o‘tirish uyushtirdi; odatda, barcha nufuzli sanatoriy va dam olish uylarida yangi kelgan dam oluvchilar uchun shunday oqshomlar uyushtirilib turadi.

Baks pastga tushganida, pansionat ahlining hammasi mehmonxonaga yig‘ilgan edi. Bu yerda oilaviy muhit hukm surardi, chunki hamma dam oluvchilar o‘tgan yili ayni shu paytda birga dam olishgan edi. Pansionat sohibi o‘z mijozlarining kayfiyatini ko‘tarish uchun astoydil harakat qilgan ko‘rinadi: xushohang musiqa yangrar, stollarda shamlar, qahva, vino va unga mos shirin gazaklar...

Borovskiy mehmonnavoz mezbon rolini a'lo darajada ijro etayotgan edi: uning bichimi juda o'xshatib tikilgan kulrang kastumi ostidan ko'rinib turgan ko'ylagining oppoq yoqasi va manjetlari ajnabiy mehmonlarning qordek oppoq ko'ylaklaridan qolishmasdi. Go'dak Olaf Svenson ham shu yerda kattalar bilan birga edi. Uning amakisi Ingmar ahyon-ahyonda magnitafonni o'chirib qo'yib, pianino oldiga o'tirar va o'zining san'atkorona ijrosi bilan bu tantanali oqshom muhitini yanada bezashga salmoqli hissa qo'shardi.

Art mehmonxonaga kirishi bilan bu yerdagi hammaning nigohi unga qaratildi. Avvaliga Baks o'zini xiyla noqulay his qildi, lekin tezda o'zini tutib oldi va ko'rsatilgan joyga o'tirib, bu yerga yig'ilganlarni bir-bir ko'zdan kechira boshladi.

Sochiga oq oralagan baland bo'yli erkak Ingmar Svenson pianinoda taniqli operettalardan parchalar ijro etar edi. Odatda, biz haqiqiy ingliz jentlmenlarini shunday qiyofada tasavvur qilamiz. Volf Svenson, agar bo'yining sal pastroq ekanligi hisobga olinmasa, akasiga xuddi quyib qo'ygandek o'xshab ketardi. Volfning xotini – doxilan haqiqiy shved ayolini eslatuvchi, och-sariq sochi silliq taralgan, hamma yog'idan qimmatbaho atir isi ufurib turgan vazmintabiat, ko'ngilchan ayol, yaxshi ona, yaxshi beka degan taassurot uyg'otardi kishida. U jilmaygancha shumtaka o'g'li Olafga dam-badam tanbeh berib turardi.

„Mana bu odam endi Poltika bo'lishi kerak“, – Aristotel ko'ziga gardishi katta ko'zoynak taqqan, to'ladan kelgan yigitga razm soldi. Bu yosh vrach o'zini basavlat qilib ko'rsatishga jon-jahdi bilan harakat qilardi-yu, ammo urinishlari zoye ketardi. Ehgimol, bunga sabab odmi kiyimi: flanel matodan to'qilgan ko'ylagi va ko'k jinsi shimi bo'lsa kerak.

Deraza oldida ikki erkak o'zaro suhbatlashib turardi. Ulardan biri, ispancha fasonda kalta soqol qo'ygan, og'zi-

da tamaki trubkasi bor, egniga odmigina bichimdagi ammo qimmatbaho kastum kiygan, yoshi anchagina o'tib qolgan odam edi. U ishi yurishgan mansabdorni eslatar, lekin juda chiroyli bichimdagi, ochrang kastum kiygan, g'oyat bashang ikkinchi yoshroq suhbatdosh ko'rinishidan tadbirkor odamlar toifasidan emasdi. „Bular Peter Nilson bilan jurnalist Milevskiy, – degan qarorga keldi detektiv. – Milevskiyga qirq yoshdan ortiq berib bo'lmasdi, holbuki tergov materiallarida uning ellik ikki yoshda ekanligi qayd qilingan. Qiziq odam ko'rinadi“.

Bojena g'oyatda latofatli edi. Sut qo'shilgan qahva rangidagi nafis ko'ylagi uning oftobda qoraygan badanini yanada nazokatliroq qilib ko'rsatardi. „Oh, qanday dilbar qiz-a!“

„Mana bular endi er-xotin Kovaliklar“, – deb taxmin qildi Aristotel. O'rta yoshlardagi tim qora sochli (sochi va mo'ylovini bo'yaganligi sezilib turibdi) er-rassom o'z qadrini biluvchi san'at namoyondalariga xos g'ayritabiiy bichimdagi kastum kiyib, bo'yniga ochiq rangli shoyi sharf bog'lagan. Uning rang-ro'yi, xususan, burnining qizilligi o'tkir ichimliklarga mayli borligini bildirib turardi.

Rassomning o'zidan ancha katta bo'lgan xotini („albatta, ular o'rtasida o'n yosh farq bor edi“) har qadamda o'zini erining „mehribon malagi“ va „homiy farishtasi“ qilib ko'rsatishga shu qadar ochiqdan ochiq urinardiki, „hi-moyadagi“ erning uni jerkib berishdan zo'rg'a o'zini tiyib turgani yaqqol ko'zga tashlanardi.

Pansionat sohibi to'planganlarga yangi kelgan dam oluvchini tanishtirdi („Pan Artur Kovalskiy, Varshava universitetining ilmiy xodimi“) va hammani joy-joyiga o'tirishga taklif qilib, o'z kasbiga xos tabassum bilan „ob-havoning xayrli bo'lishi, hammaning bu ta'til paytida sog'ayib kuch yig'ib olishi, har kuni quyosh charaqlab turishi va hamma xuddi maftunkor panna Bojena singari

chiroyli qorayishi uchun“ qadah ko‘tarishni tavsiya qildi. Umuman olganda bu siyqasi chiqqan qadah so‘zi edi. Faqat „o‘tgan kechasidagidek hodisa kamroq bo‘lsin“ degan istakkina yangi gap bo‘ldi.

Mariya Reshel yuz bergan ko‘rgilikdan keyin ancha o‘ziga kelib qolibdi shekilli, mehmonlarga xizmat qilishda Rozchkaga ko‘maklashardi. Hammaga vino tortildi va Aristotel rassomning bunday ichkilikdan burnini jiyrganini ko‘rib qoldi.

Xushbahra muhit, huzurbaxsh koshona, dilkash jamoa. Baks ham qizg‘in dilkashlik qila boshladi, lekin bu yerda ko‘rganlari va eshitganlaridan mudom doxilan ajablanardi. Zero, bu do‘stona yig‘inga kelganlar orasida qotil ham o‘tirganligini u juda yaxshi bilardi – o‘tgan tunda yuz bergan voqea buni aniq isbotlab turibdi. Ular buni bilmasliklari mumkin emas, lekin shunga qaramay, bu xunuk hodisaga chidab o‘tirishibdi, go‘yo o‘zlarini hech qanday voqea sodir bo‘lmaganday tutishyapti. Nega? Nima uchun ulardan biron kishi e‘tiroz bildirmayapti, achchiqlanmayapti. Va nihoyat, o‘zini bu mash‘um to‘dadan olib qochmayapti? Yo‘q, ular o‘z hayotidan mamnun odamlar niqobini kiyib olib, nimanidir kutishyapti. Lekin nimani? Militsiya kelib jinoyatchini hibsga olishinimi? Yoki yana yangi bir jinoyat sodir bo‘lishinimi? Shunday ekan, ular navbatdagi qurbon kim bo‘lishini bilisharmikin? E, bo‘lmagan gap! Ular buni bilolmaydi... ichlaridan faqat bir kishi bilishi mumkin buni... Yoki mana Mariya Reshel. Bundan bir necha soat oldin o‘zini bo‘g‘ib o‘ldirmoqchi bo‘lgan odamga qahva uzatayotgandir ehtimol, e, yo‘q, nega endi „ehtimol“, bu aniq! Jin ursin, nimalar bo‘lyapti o‘zi? Yigirmanchi asr, Yevropaning markazi, madaniyatli odamlar, tinch-osoyishta Polsha va kutilmaganda bunday shum hodisa! Bu odamlarni o‘rganib chiqish uchun, ularning har biri nimalarga qodirligini bilish uchun hali bir necha kun kerak bo‘ladi. Baks buning ud-

dasidan chiqa olarmikin? Eng muhimi, bu odamlar uning kimligini imkon boricha uzoqroq bilmay turganlari yaxshi. Kishining o'ziga o'xshagan dam oluvchi odam bilan mulotqotda bo'lishi boshqa-yu detektiv, tergovchi yo militsioner bilan aloqa qilishi boshqa. Tezroq shved tilini o'rganishga kirishish kerak.

Bu payt mehmonxonada suhbat nemis tilida borardi. Art ikki shved bilan norvegiyalikning nemis tilini juda mukammal bilishini, talaffuzlari a'lo darajada ekanligini o'zicha qayd qilib qo'ydi va bu hol uni mutaxassis sifatida hatto ajablantirdi ham. Borovskiy ham nemischani yomon bilmas ekan-u, lekin gapirganida mahalliy sheva so'zlarini ko'p ishlatarkan, jurnalist erkin, juda to'g'ri gapirar, uning talaffuzida bironta ham xato sezilmasdi, rassom nemischaga polyak so'zlarini qo'shib gapirar, uning xotini-ku o'z fikrini shunday bir afsonaviy tilda izohlardiki, buni u nemis tili deb hisoblardi, doktor bu tilni deyarli bilmasa ham, sal-pal tushunardi, toliba Bojena tilni yomon bilardi. Baksning o'ziku bu Gyote tilini xuddi chet elliklardek va Milevskiydek juda puxta bilar, lekin davrada o'tirganlarga buni bildirishni istamasdi, shuning uchun, suhbatga aralashgan paytlarida nemischani atayin buzib gapira boshlardi.

A'lo navli vino bir necha qadahdan ichilgach, yangi mavsumning ochilishiga bag'ishlangan bugungi oqshom harorati garchi oldiniga ancha sovuq bo'lgan bo'lsa ham, endi ancha qiziy boshladi. Rassom Borovskiy bilan qizg'in munozara boshladi. Ma'lum bo'lishicha, ularning ikkovini ko'pdan beri bir mavzu: rassomni – rangtasvirdagi, pansionat xo'jayinini esa, fotografiyadagi portretlar qiziqtirar ekan. Rassomning xotini yosh doktordan o'zi uchun qandaydir muhim bir maslahatni tekinga „undirib“ olish uchun unga kanadek yopishib oldi, uning har ikki gapining birida: „Siz nima deb o'ylaysiz, pan doktor“, „Demak, sizningcha shunday qilishim kerak ekan-da, pan doktor“ kabi yaltoqlan-

gani eshilib turardi. Doktor o'zining bu qadar hurmatga molikligidan yanada shishinib ketdi va pani Kovalikning iltimosini yerda qoldirmay, unga nasihatimiz maslahatlar bera boshladi. Ehtimol, doktor o'z ko'nglida, juda oqilona maslahat beryapman, deb o'ylagandir, lekin chetdan kuzat-tan odamga, uning hamma aygtan gaplari juda kulgili bo'lib eshiltardi, chunki u „R“ harfini talaffuz qila olmasdi.

– Sizga bu narsa mutlaqo to'g'ri kelmaydi, muhtarama pani, – derdi u. – Men buni e'tiborli olimlarning fikg'idan kelib chiqib emas, faqat o'z shaxsiy kuzatuvlarim ko'rsat-malaridan kelib chiqib gapiryapman.

Dengiz ortidan kelgan mehmonlarni Polsha iqtisodiyoti, savdosi, madaniyati masalalari qiziqtirardi.

Milevskiy Bojenadan bir qadam ham nari ketmas, uning atrofida parvona edi. Jurnalistning bu qiz bilan bunchalik betakalluf muomala qilishi o'zaro yaqin munosabatda ekan-liklaridan dalolat berar ediki, Baks dilida bu odamga nis-batan qandaydir nafratga o'xshagan tuyg'u uyg'onganini his qilib, o'zi ham hayron qoldi.

– Yo'q, endi bizning davrimizda san'atga homiylik qi-luvchi sarmoyadorlar qolmagan, – derdi rassomning rafiqasi. (O'zining ko'ngilsiz xayollari bilan ovora bo'lgan Baks Kovaliklarni tashvishga solgan bu mavzudagi suhbat qachon va qay tarzda boshlanganidan g'ofil qolgan edi.) – Rassom ijod kishisi bo'lishiga qaramay, hozirgi paytda o'zining be-baho vaqtini pul topish tashvishidek arzimagan masalalarga bag'ishlashga, faqat bugungi kun talabiga moslashib, sho-sha-pisha ishlashga majbur bo'lyapti.

Jurnalist bu ayolga e'tiroz bildirishga chog'landi, le-kin xotin kishi bilan bahslashib baraka topmaysan, degan qarorga kelib, mavzuni o'zgartirish maqsadida Baksga yuz-landi:

– Eshitdim, siz ham varshavalik ekansiz, hamyurtim bilan uchrashganimdan behad xursandman. Sizga yoqdimi bu yer?

Milevskiy pani Kovalik bilan boshlagan noxush suhbatiga barham berish uchun Baks bilan gaplashishni ixtiyor qildi, lekin u qordan qutulib, yomg'irga tutildi. Baks rasm-taomillarni inobatga oladigan odamlardan emas edi, shuning uchun u jurnalistning savoliga, „gap kelganda otangni aya-ma“, qabilida andishasizlik bilan javob qildi.

– Shahar ham, pansionat ham yomon emas, dengiz a'lo, bu yer ham menga yoqib turibdi-yu, lekin qorong'i tunda meni ham bo'g'ib o'ldirishga jazm qilishlarini o'ylasam, qo'rquvdan vujudim titrab ketadi. Gap shundaki, hali shu chog'gacha meni hech kim bo'g'ishga urinmagan...

Bunday bayonotga jurnalist churq etib og'iz ocha ol-madi. Milevskiy savolini polyak tilida bergan edi, javob ham shu tilda bo'ldi, lekin chet elliklar qandaydir g'ayriodatiy hol yuz berganini sezishdi, chunki bu yerda hozir bo'lgan polyaklar „Albatros“ning yangi mehmoni aytgan gapdan hang-u mang bo'lib qolgan edilar. Hammalari ko'zlarini baqraytirib, og'izlarini ochgancha Baksga tikilib qoldilar. Ha, hammalari – faqat toliba qizdan boshqa.

„Bu qiz o'zini juda g'alati tutyapti, – deb o'yladi Baks. – Dengiz bo'yida aytgan gapimdan juda qattiq cho'chib ketganini yashira olmagan edi, bu yerda bo'lsa, go'yo hech nima eshitmaganday o'zini bamaylixotir tutyapti“.

Baksning dag'allik bilan aytgan gapiga doktor javob qaytarishni lozim topdi:

– Siz bekorga xavotirlanyapsiz, birodari aziz. Bu ish bilan tergov organlari shug'ullanishyapti, yaqin orada ular hamma uchun qog'ong'i bo'lgan bu mash'um jumboqni ye-chishlari muqarrar degan umiddamiz.

„Kamdan kam uchraydi bunaqa to'nka“, – deb Art bu yosh vrachning suxandonligiga o'zicha baho berdi.

– Bilmadim, bilmadim, – deb e'tiroz bildirdi unga jur-nalist, lekin bu ko'ngilsiz mavzudan qochishga urinmadi. – Lekin, bilasizmi, men o'sha siz ta'rifini keltirgan tergov

organlariga sizchalik ishona olmayman. Siz-chi, fikrimga qo'shilasizmi? – deb u Baksiga murojaat qildi.

„Nega muncha yopishib oldi bu menga? – achchig'i chiqdi Artning. – Shoshmay tur, hozir eshitasan eshitadiganingni“. U shunday dedi:

– Gapingizga mutlaqo qo'shilaman. O'zim ham aynan shunday deb javob qilmoqchi edim. Men ham, bizning jinoyat qidiruv xodimlarimiz uchun juda murakkab ish deb hisoblayman bu... shaxmat jumbog'ini.

Jurnalist bir seskanib tushdi, ichayotgan vinosi qalqib ketdi, qorachadan kelgan rangida qon qolmadi. Lekin tezda o'zini qo'lga oldi va Artga savol berdi, chunki Baksning iborasini eshitgan har qanday odam ham albatta shunday savol bergan bo'lardi.

– Nima deyapsiz o'zi? Tushunmadim, bu jinoyatga shaxmatning nima daxli bor?

– Hech qanday. Shunchaki, og'zimga kelgan gapni ayt-dim-da. Axir men siz bilan gaplashyapman-ku, pan muharrir, zotan, sizning shaxsingizni ko'rgan har bir teletomoshabin, birinchi navbatda, shaxmatni ko'z oldiga keltiradi.

– Ha-a, gap bu yoqda deng! – deb jurnalist har qanday amerikalik kinoartistning ham havasini keltiruvchi chiroyli tishlarini ko'rsatib jilmayib qo'ydi. – O'zingiz shaxmat o'ynaysizmi? – Ehtirom yuzasidan qiziqsinib so'radi u, holbuki ko'zlarida bezovtalik aks etardi.

Kamdan kam, lekin shaxmat masalalarini yechishni juda yaxshi ko'raman. Men sizning „Shaxmatlar“ jurnalida bosilgan shaxmat kompozitsiyalaringiz ustida juda ko'p bosh qotirganman, e'tirof etishim kerak, hamma topshiriqlaringiz juda ustalik bilan berilgan, ularni yechish juda-juda qiyin.

– Minnatdorman sizdan, men shaxmat masalalarini tuzish bilan ko'p yillardan beri shug'ullanaman. Bu menga huzur bag'ishlaydi, yana... choychaqa ham. Nima, o'yinda hech sinab ko'rmadingizmi o'zingizni?

– O‘zim bilan o‘zim o‘ynayman va doim yutqizaman, ha-ha-ha. Hech qachon haqiqiy shaxmatchidek o‘ynay olmasam kerak, chunki uchtadan ortiq yurishni oldindan ko‘zlab olishni hech bilolmadim-bilolmadim.

– Voy, shaxmat o‘ynamaganingiz qanday yaxshi-ya, – dedi Bojena. – Demak, hamma bu telba o‘yin bilan band bo‘lganida siz bilan dilkashlik qilishim mumkin ekan.

Detektiv o‘zini bu gapdan hayron bo‘lganday qilib ko‘rsatdi. Garchi u no‘noq artist bo‘lsa ham, o‘zining ovsarona tashqi qiyofasi bilan bu artistlikni amalga oshirishda qiynalmadi. Shunga qaramay, jurnalist bu yangi mehmonga Bojenaning nima demoqchi bo‘lganini tushuntirib qo‘yishni lozim topdi.

– Bilasizmi, o‘tgan yili biz bu yerda shaxmat turniri o‘tkazgan edik. Mehmonnavoz pansionat sohibi sovrin, ya‘ni kumush qadah bilan bir shisha „Napoleon“ konyagi ta‘sis etdi. Aytganday, konyakni o‘zimiz o‘rtada pul yig‘ib oldik. Alomat sovrin, shunday emasmi? Bu yil ham shunday turnir o‘tkazish niyatimiz bor, balki, siz ham ishtirok etarsiz?

– Be, shunday kuchli o‘yinchilar bilan bellashishga yo‘l bo‘lsin menga! Taklifingiz uchup rahmat. Ochig‘ini aytsam, mening niyatlarim boshqa. Men bu yerga nafaqat dam olgani, shuningdek, ishlagani ham kelganman – shved tilini o‘rganish bilan shug‘ullanishim kerak. Ochig‘ini aytsam, kelasi yili meni uzoq vaqtga Stokholmgaga komandirovkaga yuborishmoqchi.

– O‘h-ho‘! Zo‘r-ku!

– Men ko‘nikib qolganman. Muhimi bu emas, pan muharrir. Panna Chedoning gapini eshitdingiz-a? Agar u jiddiy gapirayotgan bo‘lsa, men nafaqat shaxmatdan, shved tilini o‘rganishdan ham voz kechishga tayyorman!

– Mana buni men juda muhim dalil deb hisoblayman! Garchi shimoldagi qo‘shnilarimiz tilini bir oy ichida o‘rganib olishingizga ko‘zim yetmasa ham.

– Urinib ko‘raman. Shu bilan birga, turniringizdagi eng qiziqarli o‘yinlarni kuzatishga ham vaqt topa olsam kerak degan umiddaman... pani Chedoning joniga tekkan paytlarimda.

– Unday bo‘lsa, ishonchim komilki, siz bironta ham o‘yinni ko‘ra olmaysiz. Ko‘zingni och, Bojena, – deb Milevskiy hazilomuz tanbeh berib qo‘ydi qizga. – Agar masalani shunday jiddiy qo‘yadigan bo‘lsang, men hatto turnirda ishtirok etishdan ham voz kechaman.

– O‘zing bilasan. Agar sen ta‘tilimni yakka-yolg‘iz o‘tkazishimni, sohilda yolg‘iz sayr qilishimni, plyajda yolg‘iz yotishimni ko‘zlagan bo‘lsang...

– Unday bo‘lsa, buni ko‘pchilik hal qilsin. – Milevskiy ajnabiy dam oluvchilarga qaradi.

– Turnir sizsiz o‘z fayzini yo‘qotadi, – dedi aka-uka Svensonlarning kattasi.

– Buning ustiga, siz bu turnirning favoritisiz, – deb akasining gapini ma‘qulladi kichik Svenson. – O‘tgan yiliyoq kubok sohibi bo‘lishingizga bir bahya qolgan edi.

– Iye, siz yutmaganmidingiz? – o‘zini hayron bo‘lgandek qilib ko‘rsatdi Art.

– Afsuski, finalda yutqazib qo‘yuvdim... pani Rojnovskaga.

– Nima?! – chinqirib yubordi Baks o‘zini hech ishonmagan day, juda hayron bo‘lganday va qattiq asabiylashganday qilib ko‘rsatishga urinarkan. – Siz-a, Polsha shaxmatchilarining eng zo‘ri-ya, ayol kishiga yutqazdingizmi?

Bu savolga javoban Milevskiy o‘zining televideniye yulduziga xos tabassumini namoyish qildi, ammo bu galgi tabassumi bir qadar zo‘rma-zo‘raki bo‘lib chiqdi.

– Nachora, men hamisha jentlmen bo‘lganman. Agar jiddiy gapiradigan bo‘lsam, pani Rojnovska juda kuchli shaxmatchi edi. Biz uyushtirgan turnirda u bironta ham partiyani yutqazmagan edi, sizni ishontirib aytishim mumkinki, biz-

Art menga ta'naomuz qarab qo'ydi:

– Seniyam oftob urdimi deyman... Bu nusxa o'z xotinini o'ldirganiga iqrar bo'lish uchun kelayotgani yo'q bu yerga. Shuning uchun magnitofon qo'yib, tasmani bekorga isrof qilmayam. Agar u chindan ham iqrar bo'ladigan bo'lsa, unda boshqa gap.

Eshik taqillab, serjant, mening huzurimga Rojnovskiy degan odam kelganini xabar qildi. Men uni bu yoqqa taklif qilishni buyurdim.

Ellik yoshlarga borib qolgan Rojnovskiy hatto tashqi qiyofasiga qarab ham butun umri huzur-halovatda o'tgan odamlar toifasidan ekanligini aniq aytish mumkin edi. O'z qadrini biluvchi bu sipotabiat odam o'zini juda erkin tutardi; mana, u oromkursiga joylashib o'tirdi va men taklif qilgan sigaretani olib tutatdi. Artga u hatto qayrilib ham qaramadi, sochini silliq qilib taragan, chehrasi ko'rimsizgina bu yigitning yuzini eslab qolish amri mahol edi. Lekin Art, har ehtimolga qarshi (kim bilsin, Rojnovskiy birdan „Albatros“ga borib qolishi ham mumkin-ku), ko'zoynagini olib qo'yib, sochini silliq qilib taradi-yu tanib bo'lmaydigan darajada o'zgardi, qoldi; natijada uning tashqi qiyofasini o'zgartirish choralari ko'rishga boshqa ehtiyoj ham qolmadi.

– Sizni xotiningizning o'limi munosabati bilan chaqirtirgan edik, – deb gap boshladim men va u yog'iga aniq bir nima deyishga qiynalib qoldim, Aristotel bo'lsa menga yordam berishga shoshilmay, sukut saqlab o'tirardi. – Mana, hamkasbim ba'zi narsalarni so'ramoqchi sizdan...

Shundagina Rojnovskiy lutf ko'rsatib, e'tiborini Baksga qaratdi:

– Bu haqda biron yangilik bormi sizda?

– Unchalikmas, – Baks ko'zoynaksiz juda alomat ko'rinar, xuddi tortinchoq o'spirin yigitga o'xshab qolgan edi. – Men sizdan... sizdan... nima uchun o'tgan yili „Albatros“

da o'tkazilgan shaxmat turnirida qatnashmagandingiz, deb so'ramoqchi edim.

Bu savolning zamiriga tushunib yetmasimdan oldin Rojnovskiyning undan qattiq ta'sirlanib ketganini ko'rib taajjubda qoldim. Uning rangi dokadek oqarib ketdi, qo'llari qattiq qaltiraganidan, sigaretasini zo'rg'a kuldonga ezib o'chiradi. „Aftidan, bu shaxmat o'yinida bir gap borga o'xshaydi“, – deb o'yladim ichimda.

Rojnovskiy hamon sukutda edi. Art unga yana savol berdi:

– Savolimni tushgunmadingizmi?

– Yo'q, tushundim albatta, – dedi u birdan hushini yig'ib. – Kechirasiz, axir u... lekin men... buni mutlaqo kutmagan edim. Bugun men militsiya boshqarmasiga o'z ishim yuzasidan biron yangilik eshtarman, agar zarurat tug'ilsa biron-bir qo'shimcha ma'lumot berarman degan umid bilan keluvdim...

– Hozir ham siz o'zingizni, militsiyaga yangi ma'lumotlar beryapman, deb hisoblayvering. Qulog'im sizda.

Rojnovskiy darhol javob berishga jur'at etolmadi, uning fikrlarini jamlashga urinayotgani, nima gapirishi lozimligini o'ylayotgani yaqqol sezilib turardi.

– Hayronman, shaxmatning nima daxli bo'lishi mumkin bu ishga, mayli, agar bu narsa sizni qiziqтира... Bilasizmi, o'tgan yili men ta'tilda emas edim. Sirasini aytganda, menda hech qachon ta'til bo'lmaydi – bu odat tusiga kirgan. Men, agar bilgingiz kelsa, Shetsindagi uncha katta bo'lmagan bir korxonaga egalik qilaman. U mening muntazam ravishda bu shaharda bo'lishimni talab qiladi. Undan tashqari, o'tgan mavsumda, ya'ni kuzda va qishda shaxmat o'ynayverib juda charchagandim, xullas, katta sportni tark etish niyatidaman, yoshlar orqamizdan quvib kelishyapti.

Rojnovskiyning gaplari chalkash, fikri tarqoq edi. Baks ikkinchi savolini juda tushunarli qilib berdi:

– Xotiningiz shaxmat o‘yinida qanchalik kuchli edi?

– Natalya, Xudo rahmatiga olgan bo‘lsin uni, yaxshi o‘ynardi, ayollar orasida-ku, judayam yaxshi o‘yinchi hisoblanardi, agar Polshada o‘tkazilgan ayollar chempionatida qatnashganida, eng kuchlilar qatoridan joy olgan bo‘lardi, lekin u chempionatlarda ishtirok etmagandi. U shaxmat nazariyasini juda yaxshi bilar, partiyalar ustida bosh qotirganimda menga ko‘maklashardi, men bilan birga musobaqalarga, hatto chet el musobaqalariga ham borardi. Mas‘uliyatli turnirlarda, garchi yonimda yordamchilarim bo‘lsa ham, umr yo‘ldoshimning yordami men uchun hamisha juda asqatardi.

– Iltimos, o‘tgan yili turnirda ishtirok etgan boshqa shaxmatchilarning kuchi haqida so‘zlab bersangiz.

– Yaxshi. Milevskiy juda kuchli shaxmatchi, mening nazarimda. Haddan ziyod tavakkalchi, lekin ko‘pincha aynan shunday o‘yinchilar ajoyib partiyalarni yaratadilar. Shuningdek, norvegiyalik ham juda yaxshi o‘ynaydi.

– Qolganlar-chi?

– Ikkala shved ham yomon o‘yinchi emas, lekin turnirda qatnashish uchun ularga tajriba va ruhiy vazminlik yetishmaydi. Qolganlar esa, oliy shaxmat nazariyasi alifbosidan ham bexabar havaskor o‘yinchilar. Lekin, shuni ham aytish kerakki, pansionat xo‘jayini pan Borovski bir necha marta o‘zining kuchli endshpillari¹ bilan bizni o‘ylantirib qo‘ydi, to‘g‘ri, uning bu endshpillardan samarali foydalana olmagan paytlari ham ko‘p bo‘ldi. Ha, saboq yetishmaydi unga...

– Demak, xotiningiz hammani yutgan-a?

– Yo‘q, hali u yana norveg – janob Nilson bilan bir partiya o‘ynashi kerak edi. Bu turnirning hal qiluvchi partiyasi edi. Shu partiya g‘olibni aniqlab berishi kerak edi. Shuni ham aytishim kerakki, xotinim bu partiyada durang o‘ynasa

¹Endshpil – shaxmatda o‘yinning oxiri.

ham kifoya edi, chunki Milevskiy bilan o'ynagan advokat bir ochko yo'qotgan edi.

– Bordi-yu xotiningiz yutqazsa-chi?

– Unda, norvegda ham, Milevskiyda ham, mening xotimda ham bittadan mag'lubiyat bo'lganligi sababli, uchovlari qo'shimcha partiya o'ynashlari lozim bo'lar edi.

Rojnovskiy endi o'zini bosib olgan va Baksning savollariga qisqa-qisqa va aniq javob qaytarar edi. Uning suhbat mavzusini chuqur va puxta bilishi sezilib turardi. Art, o'z odati bo'yicha, soch tolasini orqaga qaytarish uchun qo'lini ko'tardi, lekin sochi silliq qilib taralganini vaqtida eslab qoldi.

– Senda ichgani muzdayroq biron nima topiladimi? Chidab bo'lmayapti-ku, bu jaziramaga...

Men telefon qilib, bufetdan bir necha shisha pivo keltirishlarini buyurdim. Biz huzur qilib muzdek pivoni qultumlab icha boshladik. Bir necha daqiqa xonada sukunat hukm surdi. Men kamzulimni yechdim va Rojnovskiyga ham kamzulini yechib qo'yishni taklif qildim. U menga taqlid qildi, lekin boyagidek jiddiy qiyofada tumshayib o'tiraverdi.

– Qiziq, – dedi Art go'yo o'ziga o'zi gapirayotganday. – Juda qiziq. Endi mening gapimni eshiting. Xotiningiz, hozir o'zingiz bizga aytganingizga qaraganda, shaxmatni uncha yaxshi o'ynamagan.

– Rost gapni aytdim! Hayronman, nega endi...

Art bo'shagan stakanni chetga qo'yib, o'rnidan turdi, deraza oldiga bordi. Bir necha marta xonani kezib chiqdi. Aytishicha, shu harakati unga yordam berarkan. Nihoyat, o'z joyiga qaytib Rojnovskiyga yuzlandi:

– Qani menga rostini ayting-chi: rahmatli xotiningiz shaxmatni qanday o'ynardi?

– U yomon o'ynamasdi...

– Yomon o'ynamasdi... Bu gapingiz hali hech nimani bildirmaydi. Mayli, siz menga rost gapirdingiz, deb faraz qilaylik. Unda... nima uchun xotiningizga yordam qildingiz?

Rojnovskiy toshdek qotib qoldi, rangi bo'zarib ketdi. Qaltiroq qo'li bilan stakanni og'ziga olib borib, unda qolgan pivoni ichdi, lekin bir so'z ham aytishga madori qolmadi. Men uning oldiga sigareta qutisini surib qo'ydim. U chekdi, shundagina mutlaqo o'zgargan ovozda dedi:

– Mendan shubhalanishyaptimi?

Baks o'ylab o'tirmay, shartta javob berdi:

– Albatta! Siz shubha ostiga olinganlardan bittasisiz. Shu bilan birga, o'sha shubha ostidagilar orasida faqat sizgina chalg'iguvchi chalkash guvohlik beryapsiz. Siz xotiningizning o'limiga bevosita aloqador bo'lgan dalillarni tergov organidan yashiryapsiz. Ming afsuski, siz haqiqatni sir tutishga urinyapsiz. Pavel, magnitofonni yoq, rasmiy so'roqni boshlaymiz.

– Shoshmang! – deb Artning so'zini bo'ldi Rojnovskiy. – Rasmiy so'roqning hojati yo'q, men bor haqiqatni aytib beraman. Men shunchaki buning biron ahamiyat kasb etishi mumkinligini o'ylamagan edim.

– Bevosita ahamiyat kasb etadi!

– Xotinim menga o'sha badbaxt turnirda g'alaba qozonish uning uchun juda zarur ekanligini aytgan edi. Sababini – Xudo haqqi, bilmayman.

– Hozir haqiqatni gapiryapsizmi?

– Marhumaning ruhi haqqi ont ichaman – haqiqatni! U mendan iltimos qildi – yo'q, nima deyapman? Yolvordi, hatto turnirda yutib chiqishiga ko'maklashishimni so'rab, tiz cho'kib iltijo qilishga ham tayyor edi u. – Rojnovskiyning bo'zargan ikki yuzi qizarib ketdi.

– Siz sababini so'ramadingizmi?

– Takror-takror so'radim. Lekin u aytmadi. Hozir mendan hech nima so'rama, keyin hammasini aytib beraman, deb va'da berdi. Xullas, men rozi bo'ldim.

– Qay tarzda bajardingiz buni? Biron-bir shartli belgilar, imo-ishoralar tizimini o'ylab chiqdingizmi?

– Ha, – Rojnovskiy uchun ko'ngilsiz bo'lgan narsalar haqida gapirayotgani, shu bois qattiq xijolat bo'layotgani sezilib turardi. – Umrinda birinchi marta jur'at etdim bunday qilishga, gapimga ishoning, undan oldin qancha vaqt shaxmat o'ynaganman, lekin biron marta ham... – u hayajondan duduqlana boshladi, uyalganidan cho'g'dek qizarib ketdi. – Avvaliga, Natalya shvedlar bilan o'ynaganida yordam so'radi, ular xotinigga nisbatan kuchliroq edilar, undan keyin... keyin u Milevskiy bilan o'yin boshlaganida... Qolganlarni bo'lsa mening yordamimsiz o'zi epladi.

– Ayting-chi, sipoh surishni qay yo'sinda shipshigansiz xotiningizga?

– Bu juda oson, bolalar o'yini kabi. Biz har bir sipohni ifodalash uchun, imo-ishoralar, ma'lum qo'l harakatlari kashf etdik. Shuning o'zi kifoya edi, qolganlarini ko'z urishtirish bilan bajarish mumkin edi.

– Iltimos, Milevskiy bilan bo'lgan o'yinning qanday bor-gani haqida batafsilroq so'zlab bering. Nahotki u payqama-gan bo'lsa?

– Yo'q, u bilan bo'lgan o'yinda boshqacha usuldan foy-dalandik. Natalya bilan Milevskiy nonushta tugashi bilanoq shaxmat taxtasi tegrasiga o'tirishgan. Men bu paytda u yerda yo'q edim. Gap shundaki, xotinim oq donalar bilan o'yna-gan, binobarin, partiyani boshlashda qanday yo'l tanlash Na-talyaga bog'liq bo'lgan, bilasizmi, shaxmat o'yinida bu juda muhim, zero, debyut o'yinda qanday taktika va strategiyani tanlashni belgilab beradi. Biz xotinim ikkovimiz oldindan muhokama qilib olib, o'yinda hujum taktikasini qo'llash bilan jurnalistni qopqonga ilintirish kerak degan qarorga kelgandik...

– Chakkimas...

– Bu faqat aytishga oson, bajarish esa juda mahol. Mana, o'yin mittelshpil¹ bosqichiga keldi, ammo raqibning

¹Mittelshpil – shaxmatda o'yinning o'rta bosqichi.

imkoniyati hamon xotinimniki bilan deyarli teng edi. Tushlikka chiqish uchun tanaffus e'lon qilindi. Shu asnoda men o'yinni davom ettirishning ikki xil yo'lini o'ylab chiqishga ulgurdim: birinchi yo'l qat'iy kafolatlangan durang, ikkinchi yo'l mazmunida firib mavjud edi... Jurnalist qarmoqqa ilindi, buning hech ajablanarli tomoni yo'q, sizga boya aytgan edim, Milevskiy tavakkal qilishni yoqtirardi, ochig'i, mening ham butun umidim shunda edi. Milevskiy ikkita piyodani quvlashga berilib ketib, bu yoqda ruhni boy berib qo'ydi va taslim bo'lishdan o'zga iloji qolmadi.

– O'yinning endshpil bosqichida siz zaldamingiz?

– Hamma gap shunda-da, yo'q edim. Axir biz...

– Tushunarli.

– Mana shuning uchun ham u hech nima sezmagan.

– O'zingiz uni yutgan bo'larmidingiz?

– Ha, hech qiynalмай. Milevskiy nazariy jihatdan juda puxta tayyorlangan bo'lishiga qaramay, turnirda o'ynash uchun unga tajriba, kurash malakasi yetishmasdi. Musobaqalarda yutib chiqish uchun yaxshi nazariyachi bo'lishning o'zi kifoya emas. Aytganday, nazariyaning ham ba'zi sohalarida u ancha zaif ekan, uning bu kamchiligini mudofaaga o'tganida sezdim.

– U o'z mag'lubiyatini qanday qabul qildi?

– Juda qattiq xafa bo'ldi, „Quyushqondan chiqib ketdim“, deb tan oldi. Holbuki, u partiyani durang bilan tugatishi mumkin edi.

Men bu suhbatni zo'r qiziqish bilan tinglardim. „Shaxmat mohiyati“ning jinoyat ekanligi, Baksning tergovning dastlabki chog'larida aytgan fikrlari tasdiqlanayotganligi men uchun sekin-sekin oydinlasha boshladi. To'g'ri, do'stimning qanday dalillarga suyanganini, qanday vaziyatlarda esa ichki hissiyot bo'yicha harakat qilganligini men hali bilmasdim, lekin uning jinoyat yechimiga olib boradigan yo'lni topgani aniq edi. Ha, aynan Art topgan

edi buni. Mening xodimlarimdan eng tajribali tergovchilar ham „Albatros“da yuz bergan jinoyat izini topish uchun... shaxmat nazariyasidan foydalanishlariga aslo ko‘zim yetmasdi.

– Xotiningizning qanday buyumlari o‘g‘irlangan edi? – Baksning navbatdagi savoli shu bo‘ldi.

Rojnovskiy do‘stimga yalt etib qaradi, uning bu boqishida oshkora tahsin uchquni mavjud edi.

– Buni qayoqdan bilasiz? Ha, darhaqiqat, uning qimmatbaho buyumlari o‘g‘irlangan edi. Merosiy buyumlar.

– Ularni mukammal sanab bersangiz.

– Qimmatbaho toshlar qadalgan to‘rtta tilla uzuk, ikki shoda juda qimmat turadigan marjon, oltin to‘g‘nag‘ichlar, bir qancha nafis zanjirlar va yana ancha-muncha maydachuyda taqinchoqdar. Xotinim ularni bebaho qadama naqshlar bilan bezatilgan chiroyli temir qutichada saqlardi.

– O, bu butun bir xazina-ku!

– Siz haqsiz, million zlotix turardi ular; hozirgi paytda-ku ularni qanday baholashlarini aytish qiyin. Ularga bundan bir necha yil oldin narx qo‘ygan edilar.

– Xotiningizning shuncha qimmatbaho buyumlarni kurortga olib kelishiga rozi bo‘lganmidigiz?

– Nima qilay, bu uning shaxsiy mulki edi. To‘g‘ri, uni ahdidan qaytarishga urinib ko‘rdim, bu ishing xatarli, o‘g‘irlab ketishlari mumkin, deb tushuntirdim, lekin u menga quloq solmadi. Bu boyliklarning o‘g‘irlanganini men xotinim o‘lgandan keyin bilib qoldim.

– Lekin bu haqda militsiyaga xabar qilmabsiz-da?

– Xabar qilmadim. Ortiqcha so‘rab-surishtirishlardan qo‘rqdim. Men, umuman, boyligimiz miqdoriga odamlar diqqatini tortishni istamovdim.

– Sizlarda o‘sha quti borligini biron kishi bilarmidi?

– Yo‘q... menimcha, yo‘q. Lekin aniq aytolmayman.

– Xotiningiz o‘sha qutini qayerda saqlardi?

– Hamma gap shunda-da! Svinouysseda bo‘lgan butun vaqtimiz davomida men u qutini biron marta ham ko‘rmadim. Tan olaman, bu meni xavotirga soldi, men hatto o‘sha bebaho qutini o‘zim qidirib topmoqchi ham bo‘ldim, lekin, bilasizmi, o‘z xotiningdan shubhalanishing juda noqulay tuyuladi, shuning uchun u yoq-bu yoqni tintiganday bo‘ldim-u, keyin qidirmay qo‘ydim.

– Balki, pani Rojnovska o‘z bebaho merosini pansionat xo‘jayini pan Borovskiya asrab qo‘yish uchun bergandir?

– O‘zinda ham shunday taxmin paydo bo‘lgan edi, hatto bu haqda pan Borovskiyaning so‘rab ham ko‘rdim. Lekin Natalya unga hech nima bermagan ekan.

Hamma sukutga toldi. Uni Baks buzdi:

– Gaplaringizga ishonishim kerakka o‘xshab qoldi. Agar hozir bizga haqiqatni gapirgan bo‘lsangiz, to‘g‘ri yo‘l tutgansiz. Shunday bo‘lsa ham sizga tanbeh berishdan o‘zini tuta olmayman. Gap bunday, agar siz shaxmat turnirida xotiningizning yutib chiqishiga, ayniqsa, Milevskiy ustidan g‘alaba qozonishiga ko‘maklashmaganingizda edi, hech qanday shubham yo‘qki, hozir siz... beva bo‘lmagan bo‘lardingiz.

Bu shafqatsiz so‘zlar bizning norasmiy suhbatimizga mutlaqo mos tushmasdi, lekin endi men hech narsaga ajablanmaydigan bo‘lib qolgan edim.

– Afsuski, siz haqsiz, – Rojnovskiyning afti ruhiy tushkunlikdan burishib ketdi, – o‘zim ham o‘sha turnirning nima-sidir menga yoqmayotganini sezgan edim. Xotinim g‘oyatda jur‘atli ayol edi, shaxmat mening ko‘p vaqtimni band qilgani uchun korxonamiz boshdan oyoq uning zimmasida edi. Ha, u o‘z ahdidan qaytmaydigan metin irodali ayol edi, mabodo miyasiga biron fikr kelsa, hech qachon mening fikrimga qo‘shilmasdi. Hozir sizlarga bor haqiqatni so‘zlab berdim, janoblar. Hamma aytganlarimni rasmiy protokoll uchun takrorlashdan ham qaytmayman.